

BUGUNNING SHE'RI

Qadrim so'raganda, qarog'im tilim,
Ko'ksimni ko'targan sen – tog'im, tilim,
Asrlar ajdodlar ruhini yoritgan,
Turkiy tillar ichra chirog'im tilim.

Yassaviy baytida tumorim, tilim,
Navoiy nazmida sen orim, tilim,
Kumushning vasfida betakror malak,
Qodiriydan qolgan yodgorim, tilim.

Toshlar to'fonida bag'ri tilimsan,
Ko'ksin changallagan qonli qo'lmsan,
Oyga almashmasman, kunga bermasman,
Cho'lpon yuragida ungan gulimsan.

Ko'zlarning gavhari, ko'ngil oynasi,
Izhor iffatidir yorning ginasi.
Mashrab qalamida devona tilim,
Tinglagan, entikkan ishq ashulasi.

Jismimda demangiz, jonimda tilim,
Yetmish ikki tomir-qonimda tilim,
O'g'limga ham mening jonimdan o'tgan,
Qizimga qatralab qonimdan o'tgan.

Qadrim so'rasangiz, qarog'im, tilim,
Ko'ngil osmonida chaqmog'im, tilim,
Nonidek totli-yu, choyidek issiq,
O'zbek ko'ksidagi bulog'im, tilim.

Mahmud FOR

(Davomi 4-sahifada).

21-OKTYABR – O'ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

TILNI ASRASH
MILLATNI
ASRASHDIR

OZODLIK FALSAFASI

Yurt deganda ko'z oldingizga nimalar keladi? Yaratgan bizga xalq o'laroq yashashimiz uchun ato etgan tabarruk tuproq, tog'-u toshlar, dasht-u dalalar, daryo-yu ko'llar, cho'llar-u o'rmonlardan iborat makon, yana bizni qurshab katta qilgan ota-ona, qavm-qarindosh, do'st-u yor, mahalladoshlar, to'y-ma'raka, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimiz kelmaydimi? Axir, yurt – shular bilan yurt-ku! Ammo bu omillar bilangina yurt haqidagi tasavvur to'kis bo'lmaydi. U kentik bo'lmisligi uchun yana bir muhim vosita kerak – bu, ona tilimizdir.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki millat tafakkuri, madaniyati va xotirasini tashuvchi eng muhim unsurdur. Tilsiz millat bo'lmagandek, tilsiz davlat ham bo'lmaydi.

Shu ma'noda, davlat tili – suverenitet ramzi, milliy birlik va siyosiy barqarorlikning ma'naviy kafolati, davlatning mavjud bo'lish shartlaridan eng muhimidir. Davlat tilining falsafiy mohiyati shundaki, u millatning ruhiy tafakkurini siyosiy va huquqiy makonga aylantiradi. Ya'ni, xalq ruhiyati davlat ramzlarida, huquqiy hujjatlarda va siyosiy muomalada aynan milliy til vositasida o'z ifodasini topadi. Shu sababli, til faqat grammatik yo'leksiz tuzilma emas, balki millatning ong, tarix va qadriyatlar tizimi hamdir.

Til va davlatlilik o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat madaniy, balki siyosiy, iqtisodiy va hatto xavfsizlik jihatidan ham muhim. Bir millatning tili zaiflashsa, uning siyosiy irodasi ham zaiflashadi. Ona tili va milliylikni unutganlar millat sifatida tarixga aylanadi, hatto erki o'z qo'lida bo'lsa ham. Mustamlaka zamonida ona tilini, e'tiqodi va qadriyatini yo'qotmagan millat esa, kul ostidan bosh ko'targan Qaqnus kabi o'z erkini qayta topishiga shubha yo'q. Bu so'zga tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Masalan, Xitoy – “ming yillik bosqinlar ortidan qayta tirilgan madaniyat”. Bu xalq mo'g'ullar (XIII asr), manjurlar (XVII–XIX asrlar), yaponlar (XX asr), keyinchalik G'arb mustamlakachilari hukmronligi ostida bo'lganda ham, o'z tili, e'tiqodi va yozuv tizimini asrab qola olgani uchun XX asrda milliy uyg'onish davrini boshlab, XXI asrda dunyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylandi.

(Davomi 2-sahifada).

ISLOHOT

VIJDON KO'ZGUSI

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida yurtimizda mahalla institutining vakolatları kengayib, uning jamiyatdagi o'rnı to'g'ri mustahkamlanib bormoqda. Bugun mahallaga shunchaki o'zini o'zi boshqarish organi emas, balki aholining hayotiy ehtiyojlariga javob beruvchi, jamiyatning har bir bo'g'inida taraqqiyot va farovonlikni ta'minlovchi qudratli institut sifatida qarash odat tusiga kirdi.

(Davomi 3-sahifada).

FAKT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi Toshkent xalqaro aeroporti” loyihasi taqdimoti bilan tanishdi hamda majmua poydevoriga kapsula qo'yib, qurilishni boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Oksford universitetida o'zbek tilini o'rganish dasturining rasmiy ochilish marosimida ishtirok etdi.

Xalqaro dzyudo federatsiyasi tomonidan e'lon qilingan jahon reytingida Shahram Ahadov o'z vaznida yaponiyalik Tatsuki Ishixarani ortda qoldirib, 1-o'ringa ko'tarilishga muvaffaq bo'ldi.

Toshkent xalqaro universitetida Turkiya universitetlar ittifoqining 8-Bosh assambleyasi o'z ishini boshladi. Unda 70 ga yaqin universitet vakillari, jumladan, 200 nafarga yaqin rektor va olimlar qatnashmoqda.

2025-YIL – NAVOIY VILOYATIDA “ALISHER NAVOIY YILI”

“SUNBULIN LAYLO OCHIPTUR...”

Bugun Navoiy shahrida “Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rnı” mavzusida V xalqaro ilmiy konferensiya o'z ishini boshladi.

Alisher Navoiy avvalboshdan o'z oldiga juda katta va o'ta mas'uliyatli vazifa qo'ygan. Bu turkiy, ya'ni o'zbek so'z san'atini forsiy adabiyotdan hech ham kam bo'lmagan yuksakdan yuksak darajaga ko'tarish maqsadi edi. Ochig'i, bu maqsad turkiy adabiyot oldiga, aslida, XI asrdan ko'yila boshlagan. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig”ni aynan Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si vazni va janrida bitgan va uni forsiylar “Shohnoma”yi turkiy” deyishlarini bekorga qayd etmagan. Keyin Sayfi Saroyi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning “Guliston”i, Qutb Xorazmiy Shayx Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin”, Haydar Xorazmiy esa uning “Maxzan ul-asror”ini eski o'zbek tiliga tarjima qilishi zamirida ham shu intilish yotgan. Lirikada Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy she'rlarida ham fors-tojik tilidagi she'riyatning kuchli ta'sirini ko'ramiz.

(Davomi 6-sahifada).

TILLA SANDIQ

ILOHIY NE'MAT

Til millatning qalbi, qadim ajdodlardan meros buyuk xazina, avlodlarni avlodlarga bog'lovchi ma'naviy ko'priki hisoblanadi. Har qanday tilda u mansub xalqning ma'naviy-axloqiy olami, insoniy fazilatlari, urf-odatları-yu orzu-umidlari o'z ifodasini topadi. Tilni yo'qotgan xalq o'zligini ham yo'qotadi. Milliy xotirani saqlab qolishda tilga teng keladigan boshqa qudratli vosita yo'q. Tilning mo'jizaviyligi shundaki, kishi o'zi uchun mutlaqo begona tildagi so'zlashuv yoki musiqani tinglar ekan, shu millat haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ladi.

Samarqandda o'tkazilayotgan “Sharq taronalari” musiqi festivalida bir holatni ko'p bor kuzatganman. Festival mehmonlari turli millatga mansub san'atkorlarning chiqishlarini jon quloqlari bilan eshitadilar va... bir olam zavq oladilar. Ular, deylik, o'zbek tilini bilmaydi, ammo bizning asrlar va ming yilliklar sinoviga dosh berib kelayotgan o'tmish tariximiz sahifalariga guvoh ohanglarimizdan, “Munajat” yoki suvoralaridan “axborot oladi”. Mezumi ismli yaponiyalik sayyoh ayol Registon maydonida o'zbek milliy qo'shiqlarini tinglar ekan, “Sizlarning musiqangizda ohang bilan birga til ham bor, u bilan so'zlashish, dardlashish mumkin”, degani yodimda.

Mumtoz qo'shiqlarimizda xalqimiz bosib o'tgan shonli tarixiy yo'l, jang-u jadallar, qonli bosqinlar, zulm va istibod

OYDINLAR

MEN VATANDA EMASMAN,
VATAN MENING ICHIMDA

Temur XO'JA,
taniqli olim, shoir

Go'daklik davrimni eslay olmayman. Ammo ba'zi esdaliklarim bor, ularni ham opamdan, onamdan eshitganman. Ota-onam opamdan avval ham ikki farzand ko'rgan. Ammo sargardon hayot, kasallik tufayli bolalar go'dak yoshlarida vafot etgan ekan. To'rt yoshimda Pokistonga ko'chib borganmiz. Besh qavatli katta bir uyda turardik. Otam kunduzi ishda bo'lardi, uyda onam O'zoy-Halima opam bilan meni o'stirgan.

Onamdan turli ertak va dostonlar, topishmoqlar tinglardim, 7–8 yoshlarimda ham oyoqlari ustida alla aytib uxlatar edi. 6-7 yoshlardan keyingi xotiralarimda otam bor. Otam Usmon Xo'ja ko'p she'ni yoddan bilardi, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, qozoq shoiri Mag'jondan ham o'qib berar edi. To'qqiz yoshimda yana Turkiyaga ko'chib kelganmiz. Maktab yillarimda o'zbek zamonaviy adabiyoti, Cho'lpon, Fitrat singari adiblar haqida otam va Afg'onistondan kelgan tog'am menga aytib berar edi. Xullas, adabiyotga ilk havasim shundan boshlangan. 1958–1959-yillarda Turkiyada

Hazrati Alining hikoyalari yozilgan suratli kitoblar juda mashhur edi. Menga ko'p she'rlar yodlatishgani uchun juda kichikligimdan she'r yoza boshlaganman. To'rtinchi sinfida Hazrati Alining qahramonliklari haqida hikoya yozganman.

Otam haqida eslasam, u kishi hech narsadan xafa bo'lmasdi. Albatta, hayotimizda qiyinchiliklar, og'ir kunlar ham bo'ldi. Ammo u kishini biror marta g'amin holda ko'rmaganman, aksincha, yuzida tabassum bo'lar edi. Onam teskarisi, o'zgina muammo chiqsa xafa bo'lib o'tirardi. Otam bo'lsa, qandaydir fors shoirining she'ridan: “E, ko'p g'am yema, yeganingdan ham kam yema”, degan ma'nodagi baytini aytib tasalli berar edi. Hamon men ham qachon xafa bo'lsam, otamning o'sha she'rini aytib o'zimni ovutaman.

Otam menga hech qachon qattiq gapirmagan. Xato qilsam, halimlik bilan tushuntirar edi. Onamga ham ovozi balandlatib gapirganini ko'rmaganman. Lekin otam meni ko'pincha do'stlarining yig'inlariga olib borar edi. Ba'zan qandaydir masalalarda juda qattiq tortishganlariga guvoh bo'lganman. Demak, u suhbatlar yo' milliy, yo Vatan mavzularida bo'lgan.

(Davomi 7-sahifada).



Boshlanishi 1-sahifada.

Yoki Hindistonni olaylik. 1757-yildan 1947-yilgacha ingliz mustamlakasi bo'lgan bu davlat sanskrit, urdu va hind tillarini saqlab qola olgani, o'z e'tiqodini asrab, G'arb ta'siriga qarshi ma'naviy qarshilik ko'rsatgani tufayli ozodlik harakati g'alaba qildi va davlat sifatida qayta tiklandi.

Xaritadan yo'qolib qolgan bo'lsa-da, tili va e'tiqodi sabab saqlanib qolgan yana bir millat bor – polyaklar. 1795–1918-yillarda Polsha Rossiya, Prussiya va Avstriya tomonidan bo'lib olingan. Ammo polyak xalqining o'z dini va ona tilini, milliy ruhni saqlab qola olgani bois, Birinchi Jahon urushidan so'ng mustaqil Polsha davlati qayta tashkil topdi.

Aynan shunday qismat O'zbekistonga ham begona emas. XIX asr oxirida chor hukumati mustamlakasiga aylangan, keyin sovet tuzumi iskanjasida bo'lgan o'lkamiz donishmand xalqimizning o'z tilini saqlab qola olgani, ilmga va milliy ozodlikka intilishi bois, 1991-yili mustaqil davlat sifatida qaror topdi. Bu qismat sobiq ittifoq tarkibidagi barcha mustamlaka davlatlarga xosdir.

Ona tilini, himoya qilgan yurt o'z mustaqilligini himoya qilishiga bundan ortiq misol keltirib o'tirish shart bo'lmasa kerak. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, davlat tili – bu faqat filologik yoki lingvistik emas, balki davlatchilikka oid masaladir.

G'OYANING TUG'ILISHI

Davlat tili degan so'zni deyarli hamma ishlatadi. Ammo ko'pchilik bu so'zning qayerdan paydo bo'lgani va asl mohiyati nima ekanini o'ylab ko'rmasa kerak. Keling, bu so'zning tarixiga bir nazar tashlaylik.

“Davlat tili” atamasi ilk bor XV–XVI asrlarda, Yevropada milliy davlatlar shakllana boshlagan davrda huquqiy va siyosiy mazmun kasb etgan. Bu jarayonning boshlanishi Fransiya tarixidagi 1539-yilgi “Viller-Kotre ordonansi” bilan bog'liq. Fransiya qiroli Fransua I bu ordonans (normativ-huquqiy hujjat) orqali barcha rasmiy hujjatlar, sud qarorlari va davlat yozishmalarini faqat fransuz tilida yuritishni majburiy deb e'lon qilgan. Bu hujjat til orqali milliy davlat yaratish g'oyasining boshlanishi edi. Keyinchalik Angliya, Germaniya va Ispaniyada ham shunday jarayonlar boshlangani ortidan XVI–XVII asrlarga kelib, davlat ishlarida ingliz, nemis, ispan tillari Yevropada umumiy til bo'lgan lotin tilini muomaladan asta-sekinlik bilan siqib chiqardi.



Shunday qilib, davlat tili g'oyasi Yevropada milliy davlat g'oyasining yuzaga kelishi va huquqiy-idoraviy boshqaruvda yagona til orqali markazlashuv zarurati tufayli shakllandi. Bismark Germaniyasida “bir millat, bir davlat, bir til” shiori milliy birlikni ta'minlovchi siyosiy tamoyilga aylandi. Bu shior keyinchalik Yevropa davlatlarining barchasida turli ko'rinishlarda davom etdi.

XX asrning ikkinchi yarmida Yevropada davlat tili masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. 1994-yili Fransiya qabul qilingan “Loi Toubon” (Tubon) qonuni bu jarayonning tarixiy burilish nuqtasi bo'ldi, deyish mumkin. Qonunning asosiy maqsadi – fransuz tilini inglizlashuv va globallashuv ta'siridan himoya qilish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida majburiy qo'llanishini ta'minlash edi. Unga ko'ra, davlat idoralari, ta'lim muassasalari, reklama va ommaviy axborot vositalarida faqat fransuz tilidan foydalanish, davlat xizmatchilari va fuqarolar o'rtasidagi rasmiy yozishmalar boshqa tilda bo'lmasligi, madaniy va ilmiy tadbirlarda fransuz tili ustuvor bo'lishi shart qilib belgilangan. Aynan shu qonun tufayli fransuz tili nafaqat madaniy, balki huquqiy himoya obyektiga ham aylangan. Fransuz davlatining bu qat'iy siyosati ba'zi muhitlarda “milliy til ihotasi” deb baholangan bo'lsa-da, amalda



TILNI ASRASH MILLATNI ASRASHDIR

u davlat mustaqilligining ma'naviy kafolatini ta'minlagan. Bu singari qonunlar Kanada, Belgiya va Ruminiyada ham milliy tilni himoya qilish maqsadida qabul qilingan.

DAVLAT TILI MILLATCHILIK EMAS, DAVLATCHILIKDIR

Ko'pincha til siyosatiga oid bahslarda: “Davlat tilida so'zlashni talab qilish millatchilik emasmi?” degan savolga duch kelamiz. Hatto, bu savol goh-gohida ig'vogarona tus olib, ancha-muncha shov-shuvlarga ham sabab bo'ladi. Tabiatan andishali xalqimizning oqil oydinlari esa, negadir, bu savolga dangal javob qilishga shoshilmaydi. Aslida, bu savolga javob juda aniq: davlat tilini talab qilish millatchilik emas, balki fuqarolik mas'uliyati va davlatchilikning ifodasidir. Agar shunday bo'lmasa, AQSH, Germaniya, Polsha, Fransiya, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlar bu borada o'zlarining qat'iy pozitsiyasini ko'rsatmagan bo'lar edi.

Masalan, Germaniyada doimiy yashash uchun kelgan shaxslar hatto vaqtincha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun ham nemis tilini B1 yoki B2 darajada bilishi shart. Bu talab odamni kamsitish emas, balki jamiyatga to'liq integratsiya qilish uchun joriy etilgan. Fransiya davlat fransuz tilini bilmagan odam davlat xizmatiga qabul qilinmaydi, chunki til nafaqat aloqa

va fuqarolar o'rtasida tushunmovchiliklar ko'payadi. Bunga Yugoslaviya tarixi misol.

BUGUN O'ZBEKISTONDA...

2021-yili Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi minbarida o'zbek tilida nutq so'zladi. Bu esa O'zbekiston rahbarining tarixda ilk marotaba xalqaro minbarda o'z ona tilida so'zlagan nutqi bo'ldi. Yurt rahbarining bu dadil qadami o'zbek tilini ilk bor xalqaro siyosiy muloqot tili sifatida qo'llash mumkinligini isbotladi va nafaqat o'zbek tilining, balki davlatning ham, yetakchining ham siyosiy nufuzi oshishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda davlat idoralari, elchi-xonalar, ta'lim muassasalari va media maydonida o'zbek tilining o'rni sezilarli darajada mustahkamlanmoqda. Davlat xizmatchilari uchun til darajasi bo'yicha malaka tizimini joriy etish, terminologiyani yangilash, axborot tizimlarini o'zbek tilida yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Til siyosati davlat boshqaruvining uzviy qismiga aylanib borayotir. Uning strategik vazifalarini belgilab bergan Davlat tilini rivojlantirish konsepsiyasi o'zbek tilini faqat madaniy belgi tarzida emas, balki milliy xavfsizlikning ma'naviy ustuni sifatida ilgari surish siyosatini ifodalaydi.

HAYOT-MAMOT MASALASI

Ba'zan: “Nega, davlat tili deb buncha kuyib-pishishadi? Nima, o'zbek tili kimningdir himoyasiga muhtojmi? Shuncha vaqtdan beri yashab keldi, bundan keyin ham yashayveradi”, degan yozg'irishlarni eshitib qolamiz. Bunday gaplarni uzoqni o'ylamagan, tarixdan, ona tilimizga bo'lgan xurujlardan bexabar kishilar aytadi. Bu holatga loqayd qarash mumkin emas. Keling, gapni ozgina uzoqroqdan boshlab, shunday malomatlarga nisbatan mulohazali javob qilaylik.

O'zbek tiliga nisbatan eng yovuz munosabat sobiq ittifoq davrida kuzatilgan va bu qardosh tillarning ham boshiga tushgan. Ittifoq davrida turkiy xalqlarning til yaqinligi siyosiy xavf sifatida baholangan. Shu sababli, SSSRda turkiy tillarni alohida-alohida milliy tillar sifatida mustahkamlash, dialektologik farqlarni mayda-mayda tarzda tadqiq va tasnif qilishga katta resurs ajratilgani hujjati holda qayd etilgan.

1970–1980-yillarda “turkiy tillar o'rtasidagi farqlar ilmiy jihatdan chuqur, umumiylik esa faqat tarix nuqtayi nazaridan mavjud”, degan qarash ilgari surilgan. Natijada har bir turkiy xalqning tili mustaqil “dialekt sistemasi” sifatida tasniflanib, “umumturkiy madaniy birlikda ilmiy asos yo'q”, degan qarash shakllantirilgan. Bu til orqali siyosiy parchalash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tajriba edi. O'sha davrda aynan tilshunoslik orqali ham mafkura shakllantirilgan.

Garchand sobiq ittifoq parchalanib ketgan bo'lsa-da, bugun o'sha siyosatning yangi – raqamli ko'rinishlari tez-tez ko'zga tashlanib qoladi. XX asrda sovet tilshunosligidagi “interdialekt farqi” nazariyasi turkiy tillar o'rtasidagi yaqinlikni kamaytirish maqsadida

ilgari surilgan bo'lsa, hozir bu holat “sheva orqali parchalash” ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Internet olamida shevali yozuvlar, imlo “erkin”ligi va grammatik me'yorsizlik sababli til qoidalarining zaiflashayotgani, o'zbek tilining qo'llanish sohasi qisqarib, ayniqsa, aksar yoshlar suhbatida ruscha yo inglizcha aralashmalarining ko'payib borayotgani madaniy suverenitetga nisbatan til orqali mafkuraviy bosim yuzaga kela boshlaganini anglatadi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning “Bu kishim – ustoz, biz – shogird” nomli essesinde bir dalil keltiriladi. Taniqli olim Matyoqub Qo'shjonov talabalarga tarixchi Jumaniyoz Sharipov arxivdan topgan chor hukumatining maxfiy hujjati haqida gapirib bergan ekan. Hujjat Turkiston general-gubernatorining maxfiy buyrug'i bo'lib, unda o'zbek ziyolilari maktab ochsa yo darslik yaratsalar, har bir maktabda dars o'sha hudud lahasida olib borilishi, darsliklar o'sha joy shevasida yozilishi kerakligi uqirilgan ekan. Mohiyatan: “O'zbek adabiy tilining yaratilishiga yo'l qo'ymaslik kerak, negaki, adabiy til – o'zbeklarning boshini birlashtiradi. Bu esa bizning manfaatlarimizga to'g'ri kelmaydi”, deya izohlangan hujjatning qanday qabih maqsadga xizmat qilganini izohlashga hojat bo'lmasa kerak...

Millat adabiy til orqali bir-birini tushunadi, tarixini, madaniyati va qadriyatlarini anglaydi. Afsuski, bugun o'zbek tilining ichki tizimidagi eng muhim muammolardan biri – adabiy til va sheva munosabati bo'lib qolmoqda. Sheva me'yorsiz ravishda ommaviy muhitga chiqadigan bo'lsa, u millatning ma'naviy va til birligini zaiflashtiradi. Shu bois, adabiy tilni – millatning ma'naviy birligini muhofaza qilish shart. Mayli, sheva folklorda, mahalliy muloqotlarda yashasin, undagi nodir so'z va atamalar adabiy tilni boyitdin, lekin davlat boshqaruvida, ta'lim-tarbiyada, ilmiy va axborot sohasida adabiy til muqim va ustuvor bo'lishi lozim.

YANGI SO'ZLAR QANDAY QABUL QILINADI?

O'zbek tili so'nggi yillarda faol rivojlanayotgan tillar qatorida turibdi. Shu o'rinda rivojlangan til deganda, qanday til nazarda tutilishini oydinlashtirib olish lozim. Rivojlangan til – ilmiy, texniki, huquqiy, madaniy yo boshqa istalgan sohada fikrni erkin ifoda etish imkonini beradigan, o'z standarti va leksik tizimi to'liq shakllangan til. U ilmiy va huquqiy terminologiyasi rivojlangani uchun ta'lim va davlat boshqaruvida birdek qo'llanadi. Yagona orfografik va grammatik standartga ega bo'lgani uchun texnologik va raqamli muhitda ham foydalanish imkoni mavjud. Yuksak badiiy va axborot salohiyatiga ega.

Ayni vaqtda, o'zbek tili tez rivojlanayotgani barobarida, chet tillarning unga ta'siri ortib borayotganini ham inkor qilib bo'lmaydi. Global axborot muhiti, ayniqsa, raqamli axborot olamida o'zbek tili tarkibida ko'plab xorijiy so'zlar iste'molga kirib boryapti. Shu bois, yangi so'zlarni o'zbekchallashtirishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Garchand O'zbekistonda



Abdulhamid MUXTOROV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

bu borada so'nggi yillarda qator ishlar amalga oshirilib, yangi o'zbekcha atamalar yaratilgan bo'lsa-da, hali ayrim muammolar mavjud. Joriy etilgan yangi so'zlarni ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimida faol qo'llash yetarli emas. Til siyosatini ilmiy, ijtimoiy va axborot yo'nalishlarida uyg'unlashtirish zarurati kuzatilmogda.

Misol tariqasida Yaponiya va Koreya davlatlarini oladigan bo'lsak, ularda tilga milliy o'zlikni muhofaza qiluvchi institut sifatida yondashuv mavjud. Yaponiyada har yili “Shingo-Ryūkōgo Taishō” (“Yilning yangi so'zi va moda ifodasi”) mukofoti beriladi. Sanoat, iqtisod va hokazo sohalarga kirib kelgan yot xorijiy so'zlarga yaponcha muqobil o'ylab topish bilan shug'ullanishning tantanasi sifatida o'tkaziladigan bu tadbir nafaqat tilshunoslarni rag'batlantiradi, balki jamiyatdagi fikr oqimini kuzatuvchi ijtimoiy “barometr” vazifasini ham o'taydi. Shu tariqa, yapon tiliga joriy etilgan yangi so'zlar qoida tariqasida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilib, “Gendai Yōgo” ensiklopediyasiga kiritiladi.

Koreyada esa “Urimalsaem” onlayn lug'ati va “Neologism Investigation Project” tizimi orqali yangi so'zlar ilmiy asosda koreyschallashtirib borilgan ekan. Bu jarayonda har bir yangi atamaning fonetik qulayligi, ma'nosining aniqligi va milliy til qoidalariga mosligi jiddiy tarzda nazorat qilinishiga nima deysiz!

Demak, globallashuv tufayli kirib kelayotgan xorijiy so'zlarni o'zbekchallashtirishga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim. Shu jihatdan, O'zbekiston uchun ham Yaponiya va Koreya tajribasi juda muhim: yangi so'zlar jarayonini omma bilan muhokama qilish, ilmiy va ijtimoiy ongini birlashtirish albatta shart.

QISSADAN HISSA

Buyuk mar'ifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yili “Oyina” jurnalning 11-12-sonlarida e'lon qilgan “Til masalasi” deb nomlangan maqolasida: “Ona tili, ona tili”, bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tilig'a maktabiy kitoblarni yozila bersa, Turkistonda adadsiz buzuvq ona tillar shevasig'i adadsiz kitoblarni yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdur. Taraqqiy etgan millatlar onalarni o'qutar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmog'imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur”, deb yozgan. Demak, adabiy til mavqeyini mustahkamlash jadidlarning ham orzusi bo'lgan.

Bugun milliy tillar uchun har qachongidan ko'ra o'ta jiddiy xatar mavjud. Bu internet qarshisida milliy tillarning raqamli qoloqligidir. Aksar tillar internet yoki boshqa axborot texnologiyalari yoxud dasturlashda zarur qo'llab-quvvatlashga ega emas. Ularning alifbo, imlo, maxsus belgilarni kiritish, tarjima, tilni aniqlash borasida ustunliklari mavjud emas. Aynan shu holat o'sha tillardan virtual olamda faol foydalanish imkonini bermaydi. Natijada bu tillar raqamli muhitda “ko'rinmas” bo'lib qoladi va foydalanuvchilar to'g'ridan-to'g'ri ingliz, rus yoxud internetda foydalanish imkoni bo'lgan boshqa tildan foydalanishga o'tadi. Shu tariqa, yillar mobaynida milliy tillar sekin-asta iste'moldan chiqib, ojizlashib boraveradi.

Aslida, milliy tillarni qayta tiklashda katta imkoniyat yaratgan internet kelajakda qo'llab-quvvatlovchi dasturlar yetishmovchiligi va algoritim siyosatlariga tufayli milliy tillarning raqamli zaiflashuviga, hatto yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Demak, internet uchun davlat tilida dasturlar ishlab chiqish, undagi dominant tillarda yaratilgan dasturlarni o'zbekchallashtirish, global dasturlarda albatta o'zbek tilini joriy etishga e'tibor qaratish zarur.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtrom va sadoqatni, ona Vatanga ehtrom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”, deya ta'kidlagani bejiz emas.

Davlat tili – davlatning ichki birligi, xalqning o'ziga ishonchi va madaniy mustaqilligining asosi. Unga nisbatan ehtiyotkorlik va mas'uliyatli munosabat har birimizning ma'naviy burchimizdir.

INJU

MIRTEMIR

ONA TILIM

Ona tilim – onajonim tili bu,
Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.
El-u yurtim, xonumonim tili bu,
Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa.

Bobolardan bizga meros ezgu til,
Avlodlarga xazinayi bebaho.
Qalbimizga, ruhimizga ko'zgu til,
Bu dunyoga bag'ishlagan ne daho!





Boshlanishi 1-sahifada.

Ravon nutq, ta'sirchan talaffuz – insonning hech narsaga qiyoslab bo'lmaydigan ma'naviy boyligi. O'z tilida, shu bilan birga, boshqa tillar-da mukammal so'zlay oladigan, fikrini tiniq ifoda etishga qodir kishilar fazi-lat bobida komillikka yaqin turadilar. Ulug' ajdodlarimiz bir emas, bir necha tillarni mukammal egallab, shu tillarda ham barakali ijod qilgan, dunyo ilmiy taraqqiyoti va ma'naviy rivojiga salmoqli hissa ko'shgan. Amerikalik olim Draber o'zining "Yevropada aqliy taraqqiyot tarixi" kitobida: "Yevroning bugungi ulug' ziyosi musulmonlar yoqqan sham va chiroqlarning yog'dusidan maydonga kelgandir", deya bu sharafl i shni g'oyat yuksak baholaydi.

Ilm chiroqlarining yog'dusi yanada yorqin bo'lishi uchun har kishi avvalo o'z ona tilini mukammal bilishi, shu tilda fikrlashi zarur. Bugun xorijiy

bog'cha tarbiyachilari va maktab muallimlariga bog'liq. Bolalarni erkalab, ismlarini qisqartirib aytish ko'p hollarda bola voyaga yetganida ham davom etadi. Bugun uyda, ko'chada bolalari bilan sayr qilayotganida boshqa tilda so'zlashadigan oilalar ko'payib bormoqda. Bolaning tili shu holatda qotgach, uni o'zgartirib bo'lmaydi.

Yana bir holat: ota-ona ko'pincha farzandlari ulg'ayib, yaxshi-yomon, rost-yolg'onning farqiga borib qol-ganini sezmay qoladi yoki sezsa-da, bunga e'tibor bermaydi. Bola bo'lgandan keyin kattalarning oldida jim turishi, nima deyilsa xo'p deyi-shi, betgachoparlik qilmasligi lozim, dey-miz. Ulug' ajdodlarimiz: "Aqli, fahm-farosatli yoshlar kattalar oldida o'rin-siz bilimdonlik qilmasliklari, biro-v bir nimani so'ramaguncha odob bilan sukut saqlab turishlari kerak", deb ta'lim berishgan. "Sukut goho kalomdan ulug'" degan hikmat ham bor. Bir qarashda, bu o'git sharqona



Ahmadjon MELIBOYEV

qo'yish tanlovlari hozircha ko'zga tashlanayotgani yo'q.

Xorijiy mamlakatlarda texnika, fizika, matematika, biologiya yoki kimyo sohasida ishga kirmoqchi bo'lib, tegishli tashkilotga murojaat etgan kishiga: "Agar biz sizni ishga qabul qilsak, mahsulot ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bilan bog'liq qanday yangi takliflar kiritasiz – shuni yozib bering", deyishadi. Gap

ILOHIY NE'MAT

tillarni o'rganishga alohida e'tibor berilayotgan ekan, bu jarayon ona tiliga bo'lgan e'tiborni susaytirmasligi kerak. Xorijiy o'quv yurtlarida o'qishni orzu qilayotgan yoshlar bilishlari kerakki, u yerdagi tengdoshlari O'zbekiston-dan kelgan yigit-qizlarning ingliz yoki fransuz tilida qanday so'zlashla-riga emas, o'z ona tillarini, milliy urf-odatlar-u mamlakat tarixini nechog'li bilishlariga ko'proq qiziqadi.

Yoqimli nutq, odobli mushohada, vazmin mulohaza, har qanday holatda aql-zakovat bilan ish tutish, suhbatdoshlarni e'tibor bilan tinglash madaniyatli insonlarga xos fazilatlaridir. Inson bu yorug' olamda umrguzaronlik qilar ekan, hayoti davomida kutil-magan holatlarga duch kelishi, muammolar girdobiga tushib qolishi mumkin. Bunday paytda til najotkor kuchga aylanadi. Chuqur o'ylanmay, hissiyotga berilib aytilgan birgina gap

odobga mos, e'tiroz bildirish qiyin. Ammo hamma narsada bo'lganidek, sukutda ham me'yor bo'lishi zarur. Chunonchi, bolaga ham gapirish, suhbatga qo'shilish, fikrini bildirish imkonini berish zarur.

Bolalar tarbiyasi bilan shug'ulla-nuvchi mutaxassislarning yillar sino-vidan o'tgan fikri bu. Bola noto'g'ri tarbiya ta'sirida og'zini ochmay, faqat boshqalarni tinglab, kim nima desa xo'p deyishdan boshqaga o'tmay ulg'aysa, keyinchalik hayotda o'zini shaxs sifatida namoyon qilishga qiyinaladi, fikrini aniq ifodalab berolmaydi, boz ustiga befarq va labbaychi bo'lib qoladi. Bolani fikrlashga, mulohaza yuritishga o'rga-tish oson emas, bu murakkab jarayon uni e'tibor bilan tinglash, gap-so'zlari, xatti-harakatlariga e'tibor berish, nimalarga qiziqayotganini anglashdan boshlanadi. Shunday qilsa, bola bunday munosabatni mukofotday

shundaki, yozuv ham xuddi nutqdek, ko'p narsani oydinlashtiradi.

O'quvchilik yillarim deyarli har hafta insho yoki bayon yozardik, yangi kitoblarni ovoz chiqarib, qiroatini joyiga qo'yib, navbatma-navbat o'qirdik. Urg'uni to'g'ri qo'ya olmaydigan, tortinchoq, tili chuchuk bolalarga ancha qiyin bo'lardi. Ta'til kunlari o'qigan kitoblarimizni bir-birimizga oshirib-toshirib, his-hayajon bilan hikoya qilib berish yaxshi odat bo'lgan. Bugun oliy o'quv yurtlari talabalari oraliq nazorat ishlarini asosan yozma ravishda topshiradi. Bu ayni muddao, deb o'ylayman. Ularni o'qib, talabani-fanni nechog'li o'zlashtirgani va yana dunyoqarashi, xarakteri, fikrlash saviyasi, axborotni qabul qila olish va o'zlashtirish darajasi haqida ma'lum xulosaga kelish mumkin. Chunki yozuv fikrning qog'ozga ko'chgan yozma ifodasidir.

Nutq mahorati to'g'risida bunday mulohaza yuritayotganimning boisi bor, albatta. Bugun kundalik hayotimizni teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar, turli yig'inlar, mashvaratlar, bahs-munozaralarsiz tasavvur qilish qiyin. Har kuni turfa darajadagi notiq-larning, jamiyat hayotida ijtimoiy faollik ko'rsatayotgan kishilarning fikrlarini eshitishtga to'g'ri keladi. Hurmatli deputatlarimizning intervyularini ting-laymiz. Taassufki, ularning hammasida ham nutq mahorati talab darajasida emas, talaffuz qoidalarga to'la rioya qilinmaydi. Ba'zi ma'ruzalarda ona tilimizga xos bo'lgan nozik, betakror iboralar, xalq donishmandligi ifodasi bo'lmish maqol va matalar, ta'sirchan tashbehtar buzib ishlatiladi.

Ustoz Erkin Vohidov "Gap ko'p-u ko'mir oz", deb aytiladigan maqol asiyatga mutlaqo to'g'ri kelmasligi to'g'risida kuyunib yozgan edi. Maqolning asli: "Gap ko'p-ku, umr oz". Tez aytishda "ku" "umr"ga qo'shilib, "ko'mir"ga aylanib ketgan. "Kampirning dardi g'o'zada", deyishadi. Bunday maqol yo'q. "Kampirning dardi – g'o'zada" degani bor. G'o'za – atir-upa, elik. Bunday chalkashliklarni yana ko'plab keltirish mumkin. Qish yaqin, ko'mir yetarli, ammo umr oz.

Ayrim notiq-lar o'zbekcha so'zlayot-gan bo'lsalar-da, boshqa bir tilda fikrlayotganlarini sezish qiyin emas. Teleseriallarda har kuni necha o'n martalab quloqqa chalinadigan "Gap-lashib olishimiz kerak", "Sen meni tushun, axir", "Sen nima, tushun-maysanmi?", "Ana, yashavor" kabi iboralar aslida rus tilidagi "Ham надо поговорит", "Ты пойми меня, концепции", "Ты что, не понимаешь", "Вот молодец" kabi jum-lalarning so'zma-so'z tarjimai. Hech bir o'zbek ota-ona o'g'li yoki qiziga "gaplashib olaylik", demaydi, "O'g'lim, qani o'tir-chi, ishlaring yaxshimi, nima gap, xomush ko'rinasan?" deydi. Ona ham shunday nafs gap boshlaydi.

Ulug' allomalar: "Ta'sirli so'z hayotning jon bulog'idir. Fikrlayotgan odam yashashda davom etadi. Fikrlashdan to'xtagan odamning ma'naviy umri to'xtaydi, endi u faqat mavjud bo'lib qoladi", deb bejiz aytmagan. Buning boisi, fikr insonni harakatda, jamiyatni rivojlanish holatida ushlab turadi. Fikrlar xilma-xilligi, bahs-munozara hayotni taraqqiyot sari yo'naltiradi. Buning uchun tilimiz ravon, nutqimiz mukammal, ifoda mahoratimiz yuksak bo'lish kerak.

VIJDON KO'ZGUSI

Boshlanishi 1-sahifada.

Mahalla deganda, dunyoda kamdan kam uchraydigan, inson-ni jamiyat bilan uyg'unlik va bag'ri-kenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o'r-tasida ishon-chli ko'prik vazifasini bajaradigan noyob ijtimoiy tuzilmani tushunamiz. Demak, mahallani davlat organi emas, balki fuqarolik jamiyati instituti sifatida e'tirof etish lozim.

Mamlakatimizdagi konstitutsi-yaviy islohot natijasida barcha masalalar yechimi chinakam xalq ovozi bo'lgan mahalla darajasida shakllantirildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi bosh-qarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi belgi-lab qo'yildi. Yangi tahrirdagi Kons-titutsiyamizda mazkur kafolat-ni belgilanishi mahallalarga o'z hududini mustaqil boshqarish, aholi manfaatlaridan kelib chiqib, davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etib borish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchi-lik nazoratini amalga oshirish, aholi farovonligini ta'minlash uchun muhim imkoniyatlarni taqdim etdi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, "mahalla" atamasini ilk bor Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida uchratamiz. Yusuf Xos Hojibning "Qutad'u bilig" asarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining mavjud-ligi va ularning tashkiliy-maqo-miy vazifalari xususida mulohaza-lar uchraydi. IX asr tarixchisi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobi-da Buxorodan bundan 1100 yil oldin ham mahalla va guzarlar bo'lgani qayd etiladi. Keyingi davrlarning olim va mutafakkirlari mahallani qo'ni-qo'shnicilikka asoslangan jamoa sifatida ta'riflab, uning tarixini bevosita Movarounnahr shaharlari bilan bog'laydilar.

Alisher Navoiy ijodida ham mahalla maqomi, uning jamiyat hayotidagi roli haqida muhim fikr va g'oyalari ilgari surilgan. "Majolis un-nafois" asarida mahallalar xususida, jumladan, quyidagi ma'l-u-motni uchratamiz: "Do'stmuhammad Marg'ani mahallasidandur. Ham she'rg'a, ham muammog'a ta'bi yaxshidur". Ushbu ta'kid shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy yasha-gan davrda ham mahallaning nufuzi, mahalladoshlar o'r-tasidagi o'zaro hurmat va tinchlik qadrlan-gan. Navoiy Hirotning Marg'ani mahallasida yashar ekan, u yerga suv chiqargan, shaharning eng go'zal mavzesiga aylantirgan.

O'zaro mehr-oqibat, ahilik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtojlar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Biz "Mahalla – ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

So'nggi yillarda mahallaning huquq va vakolatlari kengaytiril-moqda, ular bugun o'zini o'zi boshqarish idorasi, haqiqiy demok-ratiya darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoq-da. Mahallaning iqtisodiy rivojla-nishdagi roli sezilarli darajada oshdi. Mahallalarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'r-in-larini yaratish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ko'plab loyiha-lar amalga oshirilmoqda. Mahalla boshqaruviga katta e'tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchilligidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida mahalla tizimi-dagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish hamda joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda shu haqda atrofli-cha so'z bordi. Xususan, mahal-lada "yettilik" tizimi joriy qilinib, kredit, subsidiya, kompensatsiya,



moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ziyod xizmatlar mahalla darajasiga tushirilgani hisobiga 7,5 million fuqaro kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik darajasi 2 barobar qisqardi. Demak, kambag'allikni qisqartirishda mahallaning o'rni beqiyos.

Mahalla faollari har bir oilaning sharoitini o'rganib, ularga manzilli yordam ko'rsatadi. Bu yordam moddiy ko'mak, ish bilan ta'min-lash, kasb-hunarga o'qitish, tibbiy xizmatlar va boshqa shakllarda bo'li-shi mumkin. Mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilgani, ular boshchiligida "yet-tilik" vertikal tizimi yaratilgani, yetarli sharoit, resurs va vakolatlar berilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bunday imkoniyatlardan samarali foydalanib, ijobiy natijalarga erisha-yotgan mahallalar ko'p. Biroq, ayrim mahallalarda yagona jamoa bo'lib ishlash, mavjud resurslardan to'liq foydalanish borasida muammolar kuzatilayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari Norin tuman-i-dagi Sho'rariq mahallasini alohida ta'kidlab, uni respublika, viloyat, tuman rahbarlari va "yettilik" uchun ko'zgu, sifat va kompetent-siyani oshirishga undovchi omil sifatida ko'rsatib o'tdi. Sho'r-ariq mahallasining muvaffaqiyati, avvalo, mahalliy rahbarlar va aholining birdamligi, maqsad sari intilishi va tashabbuskorligi sabablidir. Mahallada har bir imkoniyatni aniqlab, uni istiqbolli loyihaga aylantirish, ish o'r-inlarini yaratish va aholining daromadini oshirishga qaratilgan aniq rejalar ishlab chiqilgan. Bank va soliq xodimlarining ko'magi, ajratilgan mablag'lardan oqilona foydala-nish, infratuzilmani yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali mahalla qisqa vaqt ichida sezilarli natijalarga erishgan.

Prezidentimiz tomonidan Sho'r-ariq mahallasi tajribasining alohi-da ta'kidlanishi bejiz emas. Bu orqali davlatimiz rahbari barcha mahalla rahbarlarini birdamlik-ka, tashabbuskorlikka, o'z hudud-laridagi imkoniyatlardan sama-rali foydalanishga chaqirmoqda. Bu tajribani o'rganish va o'z hududida qo'llash orqali boshqa mahallalar ham iqtisodiy rivojlanish, kambag'allikni qisqartirish va aholi-ning turmush darajasini yaxshilashga erishishi mumkin.

O'zbekiston Prezidentining o't-gan hafta imzolangan qaroriga muvofiq, mamlakatimizda Yangi O'zbekiston qiyofasi kirib boradigan 33 ta tuman va 330 ta og'ir mahalla belgilab olindi. Mazkur qaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ortda qolayotgan hududlarni qo'llab-quvvatlash, aholi turmush darja-sini yaxshilash va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan. Ajratilayotgan mablag'lar yo'llar-ni ta'mirlash, ichimlik suvi, elektr energiyasi va gaz ta'minotini yaxshilash, kanalizatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, maktablar, shifoxonalar, madaniyat markaz-lari va sport maydonchalarini qurish va ta'mirlash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish, kasb-hunarga o'qitish va ish bilan ta'minlashga sarflanishi bilan ahamiyatlidir. Belgilangan vazifalar amalga oshirilishi natijasida ortda

qolayotgan hududlar rivoji tezla-shadi, aholining turmush darajasi yaxshilanadi, yangi ish o'r-inlari yaratiladi, kambag'allik qisqaradi, infratuzilma modernizatsiya qilinadi.

2026-yildan boshlab mahallalar byudjeti uchun har yili 200 milliard so'm ajratiladi. Buning natijasida mahallalarning moliyaviy mustaqil-ligi ta'minlanadi, infratuzilmasi yaxshilanadi, aholining turmush darajasi oshadi, mahalliy boshqaruv organlarining roli kuchayadi. Bu-gungi kunda mahallalarga boshqa imtiyozlar ham berilganini ta'kidlash joiz. Bir oy oldin "Tashabbusli byudjet" bo'yicha yangi qaror qabul qilinib, mahallada odamlarning o'zi faol bo'lib boshlagan loyihalarga ko'mak beradigan tizim joriy qilindi. Bunda qaysi mahallada aholi yo'l, suv, maktab, bog'chani ta'mirlash-ni boshlagan bo'lsa, xarajatining yarmini davlat ko'taradigan bo'ldi. Bu maqsadlar uchun kelgusi yili yana mingta loyihaga 500 milliard so'm ajratiladi.

Prezidentimiz bu borada yana bir yangilikni e'lon qildi. Joriy yildan boshlab Soliq qo'mitasi yer va mol-mulk soliqlarini to'langanlik darajasiga qarab, "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" reytingini e'lon qiladi. Bunda 100 talikka kirgan mahallaga "Tashabbusli byudjet"ning yangi tizimi bo'yicha infratuzilma xarajatining 75 foizi byudjetdan to'lab beriladi. Shuningdek, ushbu mahallalarning har biriga qo'shimcha 2 milliard so'mdan ajratiladi.

Mahallalarga 2 ming kvadrat metrgacha bo'sh davlat obyektlar-ini auksionga chiqarish vakolati berilgan. Endilikda mahalla raisi va hokim yordamchisi bo'sh turgan 5 ming kvadratgacha bo'lgan dav-lat mulkini auksionga chiqarishi mumkin bo'ladi. Sotuvdan tushgan mablag'ning 70 foizi mahalla-niing o'zida qoladi va infratuzil-maga sarflanadi. Shu bilan birga, mahalla binolarini zamonaviy ser-vis obyektiga aylantirish uchun tadbirkorlarga qo'shimcha yengil-liklar beriladi.

Yig'ilishda mahallalardagi ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi bo'yicha yechimini topish zarur bo'lgan bir qator masalalar ko'rsatib o'tildi.

Masalan, oilaviy ajrimlar, aliment to'lashdan bo'yin tovlash, oilasi va bolalarini kredit qarzlari bilan tashlab ketish holatlari uchra-yotgani, yaqin qarindoshlar o'r-tasi-dagi va erta nikohlarning salbiy oqibatlari barchani – hokimlar, "mahalla yettilligi", nuroniylar, butun jamoatchilikni qattiq tashvishga solishi kerakligi qayd etildi.

Prezidentimizning mahallalar faoliyatini yanada kuchaytirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslari nafaqat mahallalar rivojiga, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va yuksak samaradorlik bilan hayotga tatbiq etilishi, mahallalarning joylarda xalqning maslakdoshi va ko'makdoshiga, ta'bir joiz bo'lsa, "adolat tarozisi"ga aylanishini ta'minlaydi.

Bugun mamlakatimizda amal-ga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning natijalari, o'zgarishlar va aholining kayfiyati, avvalo, mahallada seziladi. Shu ma'noda, mahalla – jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

O'ktam HAMRAALI



ham xalqlar, mamlakatlar o'rtasiga sovuqlik solishi, mojarolarga sababchi bo'lishi mumkin.

Hayotda goho bir-birini mutlaqo tanimagan, o'zaro muloqotda bo'lmagan ikki kishi go'zal bir lutf, samimiy tabassum ta'sirida do'st-qadrdon bo'lib ketishi mumkin. So'zning qudrati, tilning jozibasi bois shunday bo'ladi. Xalq ertaklaridagi ochko'z devlarning "Assalomu alaykum, devbuva" qabilidagi yoqimli lutf bois yomon niyatidan qaytishi ("Salomimga bo'lmaganida, yetti yamlab bir yutardim" deyishi) ham so'zning noyob kuch-qudratini ko'rsatadi.

So'zlash odobi oiladan, maktabdan, mahalladan boshlanadi. Inson nechog'li uzoq umr ko'rmasin, bu odob sabog'ining adog'iga yetolmaydi. Kichiklik chog'idan so'z va iboralarini to'g'ri talaffuz qilishga, ismlar, joylar, turfa nomlarni aniq ifoda qilishga o'rgatilgan, kitob bilan do'st tutingan, xalq ertaklarini ko'p va xo'b o'qigan, sarguzasht dostonlarni miriqib tinglagan bolalarning nutqi boshqa tengdoshlariga nisbatan mukammal bo'ladi. Bu farqni nainki nutqda, bolaning shakllanayotgan xarakterida, tengdoshlari bilan muomalasida, atrofida kechayotgan voqea-hodisa-larga munosabati va hatto, orzu-yaxollarida ham ko'rish mumkin. Xayligida ko'p ertak tinglagan, kattalar ovoz chiqarib kitob o'qiganida diqqat bilan eshitgan bolalar voyaga yetgach, faqat o'zlarining emas, boshqalarning ham fikrini eshitadigan bo'ladi. Yaxshini yomondan, odobni odobsizlikdan farqlay oladi.

Bolalar tarbiyasi bilan shug'ul-lanuvchi murabbiylarning kuzatuvicha, bola nutqining qanday bo'lishi oila a'zolariga, xususan, ota-onaga, so'ng



TINCHLIK NURI – O‘ZBEKNING NURI

Boshlanishi 1-sahifada.

TOG‘LAR OG‘USHIDA

Men tog‘larni jondek suydim.
Bulutlarga boshim qo‘ydim.
Pok tuyg‘udan cho‘g‘dek kuydim,
Tangrimgadir tashakkurim.

Osmon menga yaqin keldi,
Yomg‘irlarda oqqim keldi,
Suqli-suqli boqqim keldi,
Tangrimgadir tashakkurim.

Archalari tog‘lar ori,
Imoqlari toshlar tori,
Oq tilakdir mangu qori,
Tangrimgadir tashakkurim.

Quyosh qucha qoyasini,
Burgut solar soyasini,
Bu – muhabbat g‘oyasimi?
Tangrimgadir tashakkurim.

Toshni yorgan maysa shunda,
Qabohatga nayza shunda,
Oy o‘padi uni tunda,
Tangrimgadir tashakkurim.

Ta‘rifga qalam o‘jiz,
Qalam bilan men ham o‘jiz,
Yurak o‘tda yonar jiz-jiz,
Tangrimgadir tashakkurim.

Yetkazganga behad shukur,
Ko‘rsatgani dilga surur,
Bu ne orom, bu ne huzur,
Tangrimgadir tashakkurim.

Qalb ko‘zimni katta ochgan,
Jism-u jondan g‘aflat qochgan,
She‘r shaklida shodlik sochgan,
Tangrimgadir tashakkurim.

EZGU TILAK

Osmondagi oyning izin kim ko‘rgan,
Qadam yetmas tog‘ning muzin kim ko‘rgan,
Jannat taomining tuzin kim ko‘rgan?
Ko‘rsatgin, deb Haqdan birga so‘raylik!

Tinchlik tilaganning tilida boli,
Tinch yurtda bulbulning gulda xayoli,
Ma‘rifat mevasi – millat kamoli,
Elu yurt tinchligin birga so‘raylik!

Dil-dilga vobasta, qo‘l-qo‘lni tanir,
El-elga vobasta, yo‘l-yo‘lni tanir,
G‘anim yomonligi yaxshini yanir,
Ayo do‘st, niyatni nurga o‘raylik!

Alloh aziz qilgay halol yurganni,
Olov olqishlaydi qo‘rda turganni,
Havasini qiling, qandin urganni,
Siylangan odamni gulga o‘raylik.

Insonga chin oraz – go‘zal iymoni,
Mehr-u muruvvati baxtin posboni,
Oydan ayrilmasin umrin osmoni,
Duodan to‘kilgan durga o‘raylik!

O‘ZBEKNING NURI

Eng go‘zal rang – tinchlikning rangi,
Baxt baliqgan quvonch ohangi,
Yangi O‘zbekiston jarangi,
Qutlaganlar quvonchga to‘lsin!

Ajdodlarning orzusi bizda,
Xush tilaklar tuyg‘usi bizda,
Bugun dunyo ko‘zgusi bizda,
Qutlaganlar quvonchga to‘lsin!

Kim oftobni xushlasa nurdir,
Kim ummonni tushlasa durdir,
Shukur, o‘zbek, aslidek hurdir,
Qutlaganlar quvonchga to‘lsin!

Yaxshilikning yonog‘idamiz,
Xush duoning qarog‘idamiz,
Shukur dunyo ardog‘idamiz,
Qutlaganlar quvonchga to‘lsin!

Biz mezbonmiz mehrimiz daryo,
Jism-u jonda o‘zbekcha ziyo,
Yaxshilarga yor qilsin Xudo,
Qutlaganlar quvonchga to‘lsin!

O‘zbekiston umidning umri,
Oq kaptarlar oq tilak qumri,
Tinchlik nuri – o‘zbekning nuri,
Qutlaganlar quvonchga to‘lsin!

HIMMATLILAR XUSHLANGAY

Insonmiz, gar bo‘lsak nafsimiz quli,
Kaftimiz to‘ldirar shu gunoh kuli.
Sabrdan suv ichar savobning guli,
Himmatlilari Xudo xushlar yaxshilar!

Borin baham ko‘rar bag‘ri butunlar,
Qatorga qo‘r to‘kar qadri ustunlar,
Bizdan umidvordir usti yupunlar,
Himmatlilari Xudo xushlar yaxshilar!

Ko‘nglimiz ko‘chasi keng bo‘lsa yaxshi,
Keng fe‘lda odamzod teng bo‘lsa yaxshi,
Egni but yo‘qlarga yeng bo‘lsa yaxshi,
Himmatlilari Xudo xushlar yaxshilar!

Sizni sizlab kelsa senlamang uni,
Qaytib yaproq bo‘lmas xazon kukuni,
Unutsang unutgay, unutmang shuni,
Himmatlilari Xudo xushlar yaxshilar!

Momoqaldiroqlar uyg‘otguvchi bong,
Quyosh shoh gadoni teng qutlar har tong,
Jonzotlar ichida insondadir ong,
Himmatlilari Xudo xushlar yaxshilar!

Nasihat qilmadim, dilimga keldi,
Dilim tutdek to‘kdi, tilimga keldi,
Dil oshib, til oshib elimga keldi,
Himmatlilari Xudo xushlar yaxshilar!

YAXSHILIK YAXSHI

Yaxshi ko‘rmoq yaxshi, va lekin kimni,
U kimsa otdami yoki piyoda?
Karami keng bo‘ling, unutmang shuni,
Yaxshilik barchaga yetar dunyoda.

Umrimiz o‘lchovi O‘ziga ayon,
Biz qayda bo‘lmaylik, ko‘ziga ayon,
Shu fikr shoirning so‘ziga ayon,
Yaxshilik barchaga yetar dunyoda.

Oqillar dunyoning azobin tortgan,
Yaxshilik qilgan-u, daryoga otgan,
Baliqning savobin Holiqdan totgan,
Yaxshilik barchaga yetar dunyoda.

O‘ng qo‘ling berganin chapi bilmasin,
Nina berib, tuya gapi bo‘lmasin,
Saxovat ahlining safi bo‘lmasin,
Yaxshilik barchaga yetar dunyoda.

Baraka ko‘pdami, ozda deydilar,
Ezgu ish, niyati sozda deydilar,
Bir mayizni qirqqa bo‘lib yeydilar,
Yaxshilik barchaga yetar dunyoda.

Sadoqat safosi samoga timsol,
Vatandan topganing vafoga timsol,
Mahmudning maqsudi kelmasin malol,
Yaxshilik barchaga yetar dunyoda.

YOZMASLIK GUNOH

Yurakni vatanga ibodati she‘r,
Shoirni so‘zdagi saodati she‘r,
Pokiza niyatning ijobati she‘r,
Shunday she‘rga o‘zing yor qilgin, Alloh,
Shunday she‘rni asli yozmaslik gunoh.

Til dilning beg‘araz tilmochi bo‘lsa,
Muhabbat shoirga ishboshi bo‘lsa,
She‘ri oshiqhlarning sirdoshi bo‘lsa,
O‘qigan dardiga topolsa panoh,
Shunday she‘rni asli yozmaslik gunoh.

She‘rda ikki qalbning qalovi qolsa,
Izhori ishqining olovi qolsa,
Qolsa, lolalarning lov-lovi qolsa,
Faqat bulbul bo‘lsa baxtingga guvoh,
Shunday she‘rni asli yozmaslik gunoh.

Mehringni tutamlab tumordek tutsang,
Tumorga ul sanam xumordek tutsang,
Bu holni yozganda o‘zni unutsang,
O‘zingdan o‘zgalar bo‘lolsa ogoh,
Shunday she‘rni asli yozmaslik gunoh.

She‘r – gulning, gulzorning gulobi bo‘lsin,
Har bayti bahorning oftobi bo‘lsin,
Shoir oshiqhlarning ahbobi bo‘lsin,
Shunday she‘rni Mahmud, yozib tur goh-goh,
Shunday she‘rni axir, yozmaslik gunoh.

SENIKI

Oppoq atirgulni dilingda o‘stir,
Dilingga sig‘masa, qo‘lingda o‘stir.
Qo‘lingga sig‘maydi g‘unchalab ketsa,
Ayo do‘st, sen uni yo‘lingda o‘stir.

Gul bo‘lsang, go‘zalsan, ko‘zga sig‘maysan,
Bulbul bayotidek so‘zga sig‘maysan,
Baxtiyor bog‘bondek yuzing lovullab,
Xudoni xushlasang, o‘zga sig‘maysan.

Izingdan taralgan ifor seniki,
Gullarga yarashgan kibor seniki,
Dili gul, qo‘li gul, yo‘li gul o‘zing,
Shoirni shoshirgan ash‘or seniki,
Seniki... seniki... seniki...

XUSHNUD QILGIN

Ko‘zim bilan xalqni ko‘rdim,
Ko‘nglim bilan Haqni ko‘rdim,

Yaratganim, dildan so‘rdim,
Xushnud qilgin xalqim bilan.

Xush mezbonning gilami keng,
Ko‘pga bersang ko‘lami keng,
Bormi, sendek karami keng,
Xushnud qilgin xalqim bilan.

Oqib tursa daryo go‘zal,
Tunni tilgan ziyo go‘zal,
Eldan olgan duo go‘zal,
Xushnud qilgin xalqim bilan.

Tinchlik odam tilagidir,
Tinchlik olam tilagidir,
Bu dunyoga keragidir,
Xushnud qilgin xalqim bilan.

Tizlar cho‘kib tilovatda,
So‘raydirman ibodatda,
O‘zing axir himoyatda,
Xushnud qilgin xalqim bilan.

Barokatni boshi senda,
Umrimizning yoshi senda,
Mahmudingman, senga banda,
Xushnud qilgin xalqim bilan.

BAXT KUTSIN

Oilangda bori oroming,
Boshing uzra quyosh nur tutsin.
Shukur bo‘lsin tongi kaloming,
Eshigingda seni baxt kutsin.

Otang bo‘lsa duosini ol,
Onang hargiz ko‘rmasin malol,
Duodadir bilsang xush kamol,
Eshigingda seni baxt kutsin.

Oqibatning oppoq visoli,
Bu insonning tildagi boli,
Jigarlaring joning jamoli,
Eshigingda seni baxt kutsin.

Mehring mirob dil daryosiga,
Soya solma xush jilosiga,
O‘zing aylan el fidosisga,
Eshigingda seni baxt kutsin.

Millatingni murodin so‘ra,
Tinch, osuda hayotin so‘ra,
Xudo senga yor bo‘lsin, jo‘ra,
Eshigingda seni baxt kutsin.

YAXSHI BO‘LIB

Nafsingni ko‘m qaro tuproqqa,
So‘ng ustidan o‘ra suvoqqa.
Keyin o‘zing tutgin so‘roqqa,
Yaxshi bo‘lib yangitdan yasha.

Tiyilmoqning tilagi toza,
Tiyilganni yuragi toza,
O‘zgalariga bo‘lgin andoza,
Yaxshi bo‘lib yangitdan yasha.

Nafs degani to‘lmas xurjundir,
Uning nomi asli afsundir.
Umr qisqa, da‘vo uzundir,
Yaxshi bo‘lib yangitdan yasha.

Har bir yo‘lning poyoni bordir,
Poyonida ayoni bordir,
Yaxshilarning shoyoni bordir,
Yaxshi bo‘lib yangitdan yasha.

Bor o‘tgandan qolgan bu dunyo,
Berganini olgan bu dunyo,
Yomonlardan tolgan bu dunyo,
Yaxshi bo‘lib yangitdan yasha.

POKLIKNI ASRANG

Bo‘g‘zimni tiladi haqiqat tig‘i,
Bu dardni yuvolmas ko‘zdagi namlar,
Haqiqat oldida oqizdir yig‘i,
Poklikni asraylik ahli odamlar!

Shabnam shaklidadir tongning ko‘zyoshi,
Aql – odamzodda ongning quyoshi,
O‘z boshini yorsin tuhmatchi toshi,
Poklikni asraylik ahli odamlar!

Kim fahsh-u fasodning girdobidadir,
Kim ig‘vo, hasadning xitobidadir,
Tiriklayin do‘zax azobidadir,
Poklikni asraylik ahli odamlar!

Iymonning chiroyi – poklikning guli,
Baxt bog‘ini ko‘rmas nafsining quli,
Asrasin, bo‘lmoqdan itning “bulbuli”,
Poklikni asraylik ahli odamlar!

Osmon bilan yerning orasida biz,
Tirikmiz, nafsimiz chorasida biz,
Bo‘lmaylik haromning qorasida biz,
Poklikni asraylik ahli odamlar!

Bir bora yashaymiz dunyoyi dunda,
Nafsimiz nidosi hiqillar kunda,

Oxirat o‘tmaylik azobda, xunda,
Poklikni asraylik ahli odamlar!

Poklik – umrimizning quvonchi bo‘lsin,
Poklik taxtimizning suyanchi bo‘lsin,
Qo‘l ochsak kaftimiz duoga to‘lsin,
Poklikni asraylik ahli odamlar!

VATAN – MILLATIMIZ BOG‘IDAGI GUL

Xazonlar bahorning yilga vidosi,
Orzular armonning dilga vidosi,
Insonning bo‘lmasin elga vidosi,
Vatan – ko‘ksimizning tog‘idagi gul,
Vatan – umrimizning bog‘idagi gul.

Tuproqning ta‘mida joningni qoni,
Shu yerda uzilsin jismingni joni,
Sadoqat qalbdagi imonning shoni,
Xiyonat jafoning dog‘idagi gul,
Vatan – bu vafoning bog‘idagi gul.

Yuz yil dunyo kezsang qaytar tuprog‘ing,
Tiz cho‘kib dardingni aytar tuprog‘ing,
Ko‘rsang, chaqmoq chaqar chashmi qarog‘ing,
Vatan – quvonch quchgan chog‘idagi gul,
Vatan – baxtimizning bog‘idagi gul.

Bobolardan qolgan mangu merosing,
Manguberdlaring ichgan qasosing,
Ming tashbeh topsang ham yetmas qiyosing,
O‘zbekning o‘zligi – rog‘idagi gul,
Vatan – millatimiz bog‘idagi gul.

Kuylasang bo‘g‘zingni kuydirgan qo‘shiq,
Yetti yot ellarni iydigan qo‘shiq,
O‘zbekni jahonga suydigan qo‘shiq,
Yangi O‘zbekiston tog‘idagi gul,
Vatan – bu o‘zbekning bog‘idagi gul.

ASRAR

Oltin sohibini oltin asramas,
Mehrsiz odamni metin asramas,
Ho‘l o‘tin yooqqanni tutun asramas,
Saodat ahlini savobi asrar,
Madrilarni maydonda shitobi asrar.

Ig‘vo bolalasa umrimiz zabun,
Kim boqiy ko‘ribdi inson mansabin,
Poklik yo‘rgaklasin dilning matlabin,
Demang, xiyonatni niqobi asrar,
Uqib o‘qiganning javobi asrar.

Ko‘ngildan ko‘ngilga boqingiz bir qur,
Dardsiz mashshoq chertsa yayramas tanbur,
“Hayo xaloskor”, der Ibrohim G‘afur,
El-yurt qadrin millat ahbobi asrar,
Zaminni, osmonni oftobi asrar.

Qanoat qondadir qadring tik tutar,
Yaxshini ostonaga orziqib kutar,
Yaxshiga qo‘l emas, yurak gul tutar,
Oshiqni diydorning gulobi asrar,
Odamzotni azal odobi asrar.

Ko‘zi to‘q nafsiga nazarin solmas,
Hech kimsa vafoni jafodan olmas,
Oqil ham, odil ham Xudodan qolmas,
Xudodan qo‘rqqanni tavofi asrar,
Mahmudni mehrning dil obi asrar.

BU SAVOLLAR

Biz yo‘l yurib kimga yetibmiz,
Biz mo‘l yurib kimdan o‘tibmiz,
Qay omad, baxt barin tutibmiz?
Bu savollar dildagi qondir,
Jismimizdan chiqmagan jondir.

Kimni dedik, biz zo‘r yurganda,
Kimni ko‘rdik otida turganda,
Otdan tushib ohlar urganda,
Bo‘g‘zimizda bo‘zlagan shondir,
Jismimizdan chiqmagan jondir.

Quyosh bizdan nechun uzoqda,
Oy bulutlar ichra tuzoqda,
Parvona yo‘q biziqning chiroqda,
Vujud ichra hushyor iymondir,
Jismimizdan chiqmagan jondir.

Bir daraxtdek soya tutdikmi,
Qoqilganga qoya tutdikmi,
Millat uchun g‘oya tutdikmi?
Bu savollar abad armondir,
Jismimizdan chiqmagan jondir.

Bandasi-ku, bunga iqrordir,
Beayb zot Parvardigordir,
Nechun bevaqt sochimiz qordir,
Bu savollar rangi somondir,
Jismimizdan chiqmagan jondir.

Miltiq shoni har o‘qda bo‘lgay,
Oqil ishi zo‘r puxta bo‘lgay,
Har savolda bir nuqta bo‘lgay,
Savol borki, javob omondir,
Jismimizdan chiqmagan jondir!

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri



HIKMAT IZLADIM

Saodatning samosidaman,
Bilmam kimning bahosidaman,
Lek ezgulik duosidaman,
Kimdir o‘ylar: himmat izladim,
Men hayotdan hikmat izladim.

Qoqilganim o‘zimdan ko‘rdim,
Ochiq turgan ko‘zimdan ko‘rdim,
Befarq aytgan so‘zimdan ko‘rdim,
Gunohimga chimmat izladim,
Men hayotdan hikmat izladim.

Goh boshimdan balandga sakrab,
Goho katta daryodan hatlab,
Ne ko‘ylarga solmadi matlab,
Armonimdan ibrat izladim,
Men hayotdan hikmat izladim.

Bir bemorning yonida turmay,
Och qolgan qush donida turmay,
Ayting, qanday ko‘ksimga uray,
Insofimga nisbat izladim,
Men hayotdan hikmat izladim.

Quyosh nuri kun shoni uchun,
Oyning nuri tun shoni uchun,
Inson aziz iymoni uchun,
Shoirman-da, fikrat izladim,
Men hayotdan hikmat izladim.

TO‘RTLILKLAR

Borin bergan bilan yer nolimaydi,
Mehnatdan to‘kilsa ter nolimaydi.
Gunohdan terlash yomondan yomon,
Begunoh bandedan go‘r nolimaydi.

Sim-sim dardi bilan simillar dunyo,
Goh tezeb, goh sokin qimirlar dunyo.
Qay ko‘zman qarasang, shunday ko‘rinar,
Ikki dil jonida jimirlar dunyo.

She‘r mening qalbmni qanoti bo‘ldi,
She‘r mening umrimni bayoti bo‘ldi.
Elning elagidan bilmam qay o‘tdim,
Shukur, she‘r Mahmudning hayoti bo‘ldi.

Muz asli – bu qishning zardasi erur,
Qish o‘zi bahorning pardasi erur.
Bulbullarga beshik belagan bahor,
O‘n sakkiz ming olam xandasi erur.

Oilang oromini tillo bermaydi,
Mehrdan boshqasi, illo, bermaydi.
Oqibat ortingdan ergashib yursa,
Uyingda g‘am, qayg‘u sado bermaydi.

Oldingdan oqqan suv nazardan chetda,
Halollik hamisha hazardan chetda.
Bu dunyo foydaning foytuni emas,
Yetti o‘lchab kesgan zarardan chetda.

Qayta ko‘rmoq bo‘lsang bosgan yo‘lingni,
Ko‘ksingga qo‘yolgin ikki qo‘lingni.
Otdan tushib, picha piyoda yurgin,
Sen yerda ko‘rasan haqgo‘y elingni.

Nokasning nomi ham tilingga ozor,
U avval bergaydir dilingga ozor.
Sen undan chimdim tuz so‘rgandan ko‘ra,
Peshonang sho‘rini yalayver takror.

Qanot qoqqan bilan har qush burgutmas,
Har qushni burgutdek tog‘lari kutmas.
Bizdan o‘zga elning Navoiysi yo‘q,
Qalam tutgan zot bor, buni unutm!

Bulut ko‘rgin, qabog‘ingdamas,
Soch shu‘lasi tarog‘ingdamas,
Ochiq ko‘zda gar choonga tushsang,
Mahmud, aybing oyog‘ingdamas.

IKKILIKLAR

El-ulus nazarin taxti ilmda,
Boqiy yashamoqning baxti ilmda.

Oshqlik umrimiz oliy unvoni,
Bu shunday unvonki, ko‘pdir armoni.

Dunyo asli qo‘lning kiri deganlar.
Bir umr shu kirming g‘amin yeganlar.



KUZATUV



OQ TERAQMI, KO‘K TERAQ?

Elatimizni yoqalab oqib o‘tadigan Mesit arig‘i bo‘ylab tosh yo‘l bor. Qishloq markaziga yengil ulovlar asosan shu yo‘ldan qatnaydi. Uch yillar oldin ariq bo‘yidagi yo‘l anchagina keng edi, qarama-qarshi kelgan yengil mashinalar bemalol o‘tib ketardi. Hozir esa ikki yengil mashina ro‘para kelib qolsa, bir-biriga yo‘l berishga majbur. Undayam bir mashina sal kengroq joyda chetga chiqib turishi kerak. Nima, uch yilda yo‘l torayib qoldimi, dersiz. Yo‘q, yo‘l joyida turibdi. Ikki yil oldin tosh yotqizilib, ta‘mirlandi ham. Yo‘lning “torayishi”ga sabab esa...

Avvallari tabiiy gaz tortilmagan qishloqlar ahli qishda o‘tin g‘amida daraxtlarga rosa qirg‘in keltirardi. Bugun daraxtlarni kesish bo‘yicha moratoriya qabul qilingani tufayli qishlog‘imizda ham ariq yoqasi va dalalar chetida o‘sgan tabiiy daraxtlar – to‘rong‘ilar qisqa muddatda osmonga bo‘y cho‘zib, yon shoxlari ham yiriklashib, misli o‘rmon qiyofasiga kirib qoldi. Aynan to‘rong‘ilarning rivojlanishi yo‘lning harakatlanish qismini qoplab olishi yuqoridagi noqulaylikni keltirib chiqardi. Bu yomonmi? Shoshqaloq haydovchilar uchun yomondir, ammo Orol dengizi halokati tufayli ekologik vaziyat yomonlashgan vo‘ha tabiatini, ob-havo muassafoligini asrash va saqlash ma‘nosida – yaxshi, juda yaxshi!

Bizga qo‘shni qishloqdagi Mitan elatining qatorlashgan imoratlari uzoqdan ko‘rinmaydi ham, go‘yo qishloq o‘rmon ichida joylashgan deysiz. Uzum yetishtirishga ixtisoslashgan aholi ko‘chalar yoqasiga ham tol, terak, jiyda daraxtlarini qalin ekan. Yozning saratonida ham mo‘tadil harorat saqlanib turadigan elatga yo‘lning tushsa, iqlimi keskin o‘zgaruvchan vohada emas, go‘yo tog‘oldi qishlog‘iga kirib qolgandek bo‘lasiz.

Bu misollarni nimaga keltirdik? So‘nggi yillarda barcha joylarda bo‘lgani kabi Xorazm viloyatida ham yashillik olamini kengaytirish maqsadida millionlab ko‘chatlar ekildi, ekilmoqda. Kech kuz va bahorda katta yo‘l yoqalarida ko‘kalamzorlashtirish kampaniyasi jadal olib borilayotganiga ko‘zimiz tushadi. Ammo, afsuski, katta yo‘l bo‘ylari shuncha yillar davomida ham biz yashaydigan qishloq arig‘i bo‘yidagidek “yashil makon”ga aylanmadi. Vaholanki, arig‘imiz bo‘yiga biror odam bir tup nihol suqmagan – bu joy tabiiy tarzda to‘rong‘izorga aylanib ulgurgan.

Vohaning iqlim sharoitida necha asrlar muqaddam yerlashgan daraxt turlari – terak, tol (oq va qora tol), jiyda, to‘rong‘i, qorom, gujum va boshqalar tez o‘sishi, yoz jaziramasida qishqarib qolgan qolgani aks etgan. Ana shu qirib qirib archalarning bir necha millioni qish sovuq‘iga chidamliligi bilan yashab kelyapti. Bu daraxtlarni ko‘paytirish ko‘p daromad talab qilmaydi. Masalan, terak, tol, jiydani ko‘paytirish uchun uning ikki-uch yillik shoxchasini kesib, mos yerga suqsangiz bo‘ldi, tutadi-ketadi. To‘rong‘i esa tabiiy tarzda, yer ostidagi tomirlari hamda gullash mavsumida shamol uchirgan urug‘laridan ko‘payadi. Butun bir tumanni yashil makonga aylantirish uchun millionlab tup mahalliy daraxt nihollarini ko‘pi bilan ikki haftada ekish uchun arzimagan mablag‘ sarflanadi, buyam daraxt ko‘chatlarini tashish, ulov va ishchi-xizmatchilarga issiq ovqat uchungina ketadigan xarajatlar.

Ancha yillar oldin vohaga millionlab tup limon ko‘chatlari olib kelindi. Ikki qarich keladigan bir dona ko‘chat o‘n ikki ming va uni o‘rnatiladigan maxsus

tuvak bilan qo‘shib hisoblaganda qirg‘in ming so‘mdan oshgan. Issiq iqlimli hududlarda o‘sadigan bu ko‘chatlarning yuzdan biri ham saqlanib qolmadi – birinchi qishdayoq qurib qoldi. O‘shanda mahalliy mutaxassislar limon ko‘chatlari uchun ketgan mablag‘ga o‘n ikki million tup tol yoki terak ekish mumkin edi, degan xulosaga kelishgan. O‘n ikki million tup tol yoki terakdan hech bo‘lmaganda o‘n millioni ildiz otib, hozirda qurilishga yaraydigan holga kelib qolardi.

Vohada archasimon daraxt turlari uzoq tariximizda o‘smagan. Oxirgi yarim asrga kelib shu turdagi daraxtlarni vo‘ha tabiatiga moslashtirishga harakat qilindi. Hozirda ilk ekilgan archa, qarag‘ay kabi ninabargli daraxtlarning eng “kekxa”si yoshi qirg‘ yilga yaqinlashdi. Shu qirg‘ yil ichida ko‘pi bilan o‘n metrcha bo‘y tortgan archasimon daraxtlardan endigina qurilish materiali sifatida foydalanish mumkin. Axir mahalliy nav teraklar sakkiz-o‘n yil ichida qurilishbop materialga aylanadi-ku!

Voha sharoitida tez rivojlanadigan qora tol niholi uch yilda kamida sakkiz metr o‘sadi. Shu davrida uning asosiy tanasi chopilib, yerdan bir metr balandlikdagi to‘nkasi qoldiriladi. Ana shu to‘nkadan bahor boshida o‘sib chiqqan novdalari uch yilda foydalanish mumkin bo‘lgan holatga, ya‘ni xodaga aylanadi. Uzunligi o‘n metrga boradigan xodalar uzumlarga tirgak qilish va imoratlarni bostirishda ishlatiladi. Bundan tashqari, hunarmandlar xodalardan turli mebellar yasashda keng foydalanadi. Qisqasi, qora tol niholi olti yilda ilk “hosil”ini beradi va bu “hosil” har uch yilda qayta va qayta yig‘ishtirib olinadi. Archasimon daraxtlar qirg‘ yilda qurilishga yarasa, qora tol bu muddatda kamida o‘n marta shunday vazifani bajaradi. Jiyda daraxti esa bir paytning o‘zida shifobaxsh, to‘yimli meva beradi, har yili ortiqcha o‘sgan shoxlari aholi uchun arzon o‘tin ham bo‘ladi.

Masalaning yana bir muhim tomoni bor. Mahalliy daraxtlar ninabargli archasimon daraxtlarga qaraganda ikki-uch hissa ko‘proq kisorlod ishlab chiqarishi bilan bir vaqtda, yerosti suvlari yuzaga yaqin bo‘lgan vo‘ha sharoitida sho‘rlanishni yo‘qotishga ham beminnat xizmat qiladi. Jiyda ko‘chatlari suv yo‘q joylarda ham tez o‘sib, rivojlanaveradi. To‘rong‘i, qoramon yovvoyi tarzda o‘ssa-da, aynan jiyda kabi tabiatni tozalash, yerosti zax suvlarini bug‘lantirish, bir so‘z bilan aytganda, tabiat muvozanatini saqlashda “sanitar” vazifasini bajaradi.

...Yaqinda rasmiy telegram kanallarda yoyilgan ma‘lumotda aytilishicha, bahorda ekilgan nihollarning 27,5 million donasi qurib qolgan. Xabarga ilova qilingan suratda yo‘l yoqasiga ekilgan archa ko‘chatlarining qovqirab, qurib qolgani aks etgan. Ana shu qirib qirib archalarning bir necha millioni Xorazmga ham tegishli. Bir tup ko‘chat necha so‘mdan sotib olingan, uni o‘tqazish va parvarishlash, sug‘orish uchun qancha mablag‘ sarflangan? Oz emas. Bir mavsumda ko‘rilgan zarar o‘nlik raqamlar bilan ifodalanadi.

...Kuni kecha viloyat markaziga borayotib, yo‘l chekkasiga bahorda ekilgan, ammo yerlashib ketmay qurib qolgan ninabargli ko‘chatlarni yig‘ishtirib yurishganiga ko‘zim tushdi. Esiz, ketgan vaqt, sarf-xarajatlari!

Tez kunlarda “Yashil makon” dasturi doirasida kuzgi mavsumda manzarali daraxt ko‘chatlari ekish yana boshlanadi. Aytishlaricha, kuzgi ko‘chat ko‘klamgiga nisbatan yaxshiroq o‘rnashib, unumi soz bo‘ladi. Demak, jo‘jani bahorda sanaymiz.

Ro‘zimboy HASAN

20-OKTYABR – ODIL YOQUBOV TUG‘ILGAN KUN

JAVOBGARLIK JASORATI

Yetmish yillik umrimning uchdan ikki qismi shu tahririyatda o‘tdi. Musahhihdan bo‘lim mudirigacha bo‘lgan uzun yo‘lda o‘n uch nafar bosh muharrir rahbarligida ishlagan bo‘lsam, ular orasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning o‘rni alohida. Taniqli adib Xayriddin Sulton “Navoiy-30” kitobida Odil aka bilan birga ishlagan davridagi ta’sirli voqealarni keltirib o‘tgan. Kamina esa gazeta muharriri sifatidagi faoliyati haqida yozmoqchiman.

YANGI NOM VA YANGILANGAN JAMOA

2024-yil 1-yanvardan “Jadid” nomi ostida chop etilayotgan gazetamiz 1956-yil 4-yanvarda “O‘zbekiston madaniyati” sifatida tashkil etilgan. 1981-yil (Asqad Muxtor rahbarligi davrida) nashr nomi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”ga o‘zgardi. Gazeta nomi o‘zgargach, tahririyat oldiga yangi vazifalar qo‘yildi. Ularni ado etishga jamoaning quvvati yetmay qoldi. Asqad Muxtor ichki madaniyati yuksak shaxs sifatida xodimlar ko‘nglini og‘ritib qo‘yishdan, xato-kamchiliklar uchun jazo ko‘llashdan o‘zini tiyardi. Hatto, malomat toshlariga ham qoyaday sukut saqlardi.

Vaziyat taqozosiga ko‘ra, 1982-yilda gazetaga atoqli yozuvchi Odil Yoqubov bosh muharrir etib tayinlandi. Bu vaqtda u kishi “Ulug‘bek xazinasi” romani muallifi sifatida shuhrat qozongan, qator ijodiy tashkilotlarda muharrirlik qilib, boy tajriba to‘plagan so‘z zargari edi. Albatta, hammamiz yangi bosh muharrirning asarlarini o‘qigandik, yaxshi taniridik. Shunday bo‘lsa-da, baribir, barcha xodimlar sarosimada, nima bo‘lishini kutib, taraddudda yurak hovuchlab turardi.

Odil aka jamoa bilan tanishgach, ish jarayoni qizib ketdi. Ikki haftada tahririyat xodimlarining yarmidan ko‘pi almashdi. Ba’zilar boshqa ishga o‘tkazildi, ba’zilar o‘z ixtiyori bilan ketdi, ba’zilarga esa rosmiana chora ko‘rildi. Eh-he, issiq o‘rmini, qilayotgan (yoki qilmayotgan) ishini davom ettirmoqchi bo‘lganlar ne nayranglar o‘ylab topmadi, “yuqori”dan qancha ko‘ng‘iroqlar bo‘lmadi, deysiz. Ammo barchasi Odil akaning olmosday o‘tkir va mustahkam qat’iyatiga tegib, xom kesakday parchalanib ketdi.

Jamoa o‘rtasida vazifalar qayta taqsimlandi. Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov bosh muharrir o‘rinbosari, Mamatqul Hazratqulov mas’ul kotib sifatida ish boshladi. O‘zgarishlar meni ham chetlab o‘tmadi. Odil aka maqolalarimni kuzatib yurgan ekanmi, ko‘p o‘tmay san’at bo‘limiga ishga o‘tkazdi. Diplom ishim dublyaj san’ati haqida bo‘lgani uchun bu sohaga juda qiziqardim.

Xullas, jamoada har jihatdan tartib-intizom o‘rnatildi. Harbiy tilda aytganda, jamoa jangovar holatga keltirildi.

ADOLAT MANZILI

O‘sha paytlarda, 1982–1987-yillarda gazeta adadi salkam bir million nusxaga yaqinlashdi. Ustoz zamon nafasini teran va nozik his qilar, dolzarb mavzularni o‘z vaqtda belgilar va kim qaysi masalani to‘laqonli yoritishni aniq bilardi. Ma’lumki, u vaqtlarda tanqidiy, dadil tahliliy maqolalarni e’lon qilish oson emasdi. Lekin shunday vaziyatda ham Odil aka qaltis, ammo zarur materiallarni taqdim etishning yo‘lini topardi. Ishda talabchan va qattiqqo‘l bo‘lgan ustoz hayotda nihoyatda oqko‘ngil, bag‘rikeng, samimiy inson edi.

“Har qanday millatning, har qanday xalqning tirikligini va parvozini uning ikki qanoti – tarixi va tili ta’minlaydi.

Odil YOQUBOV

GAZETXON MUNOSABATI

“Jadid” gazetasining shu yil 40-sonida Jamoliddin Badalovning “Xufiyona qotillik qissasi” maqolasini o‘qigach, tibbiy madaniyatimizni oshirish yo‘lida hali ko‘p ishlar qilinish zarurligiga amin bo‘ldim. Muallifning fakrlariga qo‘shimcha ravishda, turmushda tez-tez uchrab turadigan yana bir og‘riqli holatga e’tibor qaratmoqchiman.

Choyxonada qadrdonlar bilan o‘tirgandik. Bir sherimiz tishi qattiq og‘ri-yotganini aytib qoldi. Boshqa do‘stimiz ertagayoq stomatologga borishni tavsiya berdi. Boshqasi esa cho‘ntagidan dori chiqardi-da, “Tez yaxshi qiladi, ichib yubor”, dedi. O‘n-o‘n besh daqiqadan so‘ng tishi og‘rig‘an do‘stimiz: “Haqiqatda zo‘r dori ekan. Uyda xotinim bergan dori ta’sir qilmagandi. Endi doim shuni ichib yuraman”, deb qoldi. Birinchi do‘stimiz: “Bu senga uzum emas, bog‘ini so‘ramay yib ketadigan. Bu dori, allergiya bersa nima qilasan? Balki, senga mumkin emasdir. Bir joyingga foyda bo‘lsa, boshqasiga zarar berishi mumkin. Saqlash muddati o‘tmaganmi,



Odil Yoqubov qisqa muddatda ishchan, ilmiy, iste’dodli jurnalistlar jamoasini to‘pladi, yoshlarga alohida e’tibor qaratdi. Ular har songa jamiyatning eng og‘riqli muammolari, kechiktirib bo‘lmas vazifalar haqida aniq faktlar bilan boyitilgan shov-shuvli maqolalar tayyorlab, bosh muharrir stoliga qo‘yardi.

Shu bilan bir qatorda, Odil aka hamisha tahririyatga kelayotgan xatlarga jiddiy e’tibor berish kerakligini ta’kidlardi. Xatlarning deyarli hammasini shaxsan ko‘rib chiqishga harakat qilardi. Hatto, “Kuyunchak gazetxonlardan xatlar” deb nomlangan rukn uchun murojaatlarni o‘zi saralagan vaqtlar ham bo‘lardi. Shikoyatlar alohida e’tibor bilan munosabatda bo‘lar, ko‘pincha holatni o‘rganish uchun xodimlarni joylarga xizmat safariga yuborar, so‘ng gazeta sahifalarida xalq ko‘nglidagi gaplar, umummillat muammolari va jamiyat illatlari aks etgan maqolalar paydo bo‘lardi. Shunday qilib, gazetamiz adolat manzili sifatida dong taratdi, davrning oshkoralik minbariga aylandi. Bu adolatparvarlik Odil Yoqubovga qimmatga tushganini keyin-keyin bildik. O‘tkir tanqidiy maqolalar, sud ocherklari, jurnalistik surishtiruv kabi materiallar yuzasidan so‘roq-savollar bo‘lsa, hamma javobgarlikni bosh muharririmiz o‘z zimmasiga olardi. O‘zlari ham e’tirof etisha kerak, Mamatqul Hazratqulov, Ashurali Jo‘rayev, Karim Bahriyev, Kamol Matyoqubov, Sharifa Salimova va boshqalar Odil Yoqubov maktabidan chiqqan jurnalistlardir.

Odil akaning odilligi yana shunda ediki, o‘rtamiyona materialga toqatsiz bo‘lib, kim yozishidan qat’iy nazar, ularni sahifaga yo‘latmasdi. Qalam haqi “cho‘g‘li” bo‘lgani uchun ba’zi mualliflar maqolaning hajmini ko‘paytiraman deb, laqmalikka o‘tib ketardi. Bunday matnlar muharrirning o‘tkir qaychisidan omon qolmas, tahrirdan keyin nastaringulday ochilib, gazetani bezab turardi.

“MEN JAVOB BERAMANI!”

Odil akaning o‘zi aytganidek, “Xotin jafosiz bo‘lmas, kitob xatosiz”. “Adabiyot va san’at” sahifalarida ham har qancha sinchkovlik va ehtiyotkorlik qilmaylik, xatolar o‘tib ketardi.

...Navbatdagi son muhokamasida ma’lum bo‘lishicha, birinchi sahifadagi maqolada yirik partiya arbobining familiyasidan bir harf tushib qolibdi.

Hammamiz zudlik bilan bosh muharrir xonasiga yig‘ildik. Xona jimjit. Barcha sahifaning bir nuqtasiga qarab turibdi. Birdan hukumat telefonidan qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Odil aka vazminlik bilan go‘shakni ko‘tardi. “Ha, men – Odil Yoqubov”, dedi xotirjam. Narigi tomondan asabiyl tovushlar eshitila boshladi. So‘zlovchini eshitib turgan rahbarimiz e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan qilib: “Men javob beraman!” deb gapni kesdi. Trubkani jahl aralash joyiga qo‘ydi. U tomonning aytadigan gapi ichida qoldi.

Ustoz kimning sahifasi edi, navbatchi kim, deb o‘tirmay, Markazqo‘mga ketdi. Garchi “oshkoralik davri” deb atalsa ham, hamon qattol tuzumning qilichi qonsirab turardi. Bosh muharrir bu vaziyatda tartib bo‘yicha aybdorni topib, unga tegishli chora ko‘rib, bayonnomasini yuborsa ham, hech kim e’tiroz bildira olmasdi. Ammo bir harf mojarosi ideologiya mas’ullariga aloqador bo‘lgani uchun oddiy odamni yanchib tashlashi hech gap emasdi. Odil Yoqubov azamat chinor ediki, uncha-muncha bo‘ron yiqolmasdi.

Markazda bosh muharrirga qanday munosabat bo‘lganini bilmadik, o‘zi ham aytmadi. Minnat qiladigan odati yo‘q edi ustozning. Keyin ma’lum bo‘lishicha, qo‘l qo‘yilgan sahifada hammasi to‘g‘ri bo‘lgan. Sexdagi sahifalovchi gazetaga qo‘l qo‘yib bo‘lingandan so‘ng o‘sha rahbarning familiyasini qayta terganida xato ketgan ekan.

FIDOYILIK

Odil Yoqubovning tarjimayi holiga e’tibor bersangiz, 1982-1987-yillarda birotra yirik asari va kitobi chop etilmagan. “Ko‘hna dunyo” romani bosh muharrirlikka kelgan yili, keyingi kitobi – “Oqqushlar, oppoq qushlar” esa 1988-yilda chiqarilgan. Chunki bu besh yillikda katta adibimizning bor kuchi, diqqat-e’tibori gazetaga qaratilgan edi. Shunday bo‘lsa ham, ish jara-yonida bo‘ljak kitoblari uchun material to‘plashdan to‘xtamadi. Bunga qanday ulgurishiga hayron qolardik. Balki ulug‘lik siri ham shundadir.

Adib hayotidagi muhim voqealardan biri aynan gazetada ishlagan davriga to‘g‘ri keladi. 1985-yilda Odil Yoqubovga “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni berildi. Keyingi yili nufuzli ordenga loyiq ko‘rildi.

1987-yilda Odil Yoqubov O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi birinchi kotibi lavozimiga o‘tkazildi. U kishining ketishini qabul qilish tahririyat uchun og‘ri bo‘ldi. Bosh muharrirlikka Ahmadjon Meliboyev kel-gach, yuragimizdagi hovur biroz pasayganday bo‘ldi. Ahmadjon aka ustoz boshlab bergan yo‘lni munosib davom ettirdi.

Buyuklar haqida yozish oson emas. Xotiramning qirg‘ yillik sahifalarini baholi qudrat varaqlashga harakat qildim. Bu – dengizdan tomchi, xolos. Kelgusi yili Odil Yoqubov tavalludiga 100 yil to‘ladi. Bu sana katta adabiyot bayramiga aylanishiga ishonaman.

Gulchehra UMAROVA

TANASI BOSHQA...



qanaqa sharoitda saqlangan? Qarab ichmaysanmi?” deya dakki berdi.

Yana bir safar avtobusda yo‘lovchi qiz hushini yo‘qotdi. Kimdir yelpidi, kimdir yuziga suv sepdi, kimdir o‘ziga kelgan qizga dori ichkizdi...

Dori bilib ichganga davo, ko‘r-ko‘rona yutganga zahar. Dori sotib olganda qadoq ichidagi uzundan uzoq yo‘riqnomini o‘qish kerak. Bu ko‘rgazma uchun yozilmaydi.

Ko‘pincha bemorlar tekshiruv va tahlillarning ko‘pligidan noliydi. Aslida

bu tekshiruvlar kamroq dori iste’moli uchun qilinayotgandir. Qaysi shifokor kam tekshirib, ko‘p dori yozib bersa, o‘sha xaxshi tuyuladi. To‘g‘ri, u ham bilim va malakasidan kelib chiqib harakat qilayotgandir. Lekin bemor obdon tekshirilib, dorilarning qaysi turi va miqdori to‘g‘ri kelishini aniqlash o‘ta muhim.

Bir kuni dorixonaga kirdim. Bir ayoqling buyragidan tuz ko‘chib, xuruj bilan kelib dori so‘radi. Shunda dorixona mudiri “Tez yordam” chaqirdi va hech qanaqa dori bermadi. Bemor burchakda qunishib olib, “Tez yordam” kutdi va og‘riq qoldiruvchi biror nima so‘rayverdi. Rad javobi olgach, yana ingray boshladi. Bu holda dorixona mudiri to‘g‘ri yo‘l tutdi. U qimmatroq og‘riq qoldiruvchi dorini pullashi ham mumkin edi. Ammo bemorning hozirgi holatidan keyingi hayoti muhim, o‘ta muhim.

E’tibor qilsak, ayrimlar doim dori ichib yuradi. Yonida biror dori bilan yuradiganlar ko‘p. Bu dorilarni shifokor

faqat shu bemorga tavsiya qilgan. Men shundan tuzaldim, deb boshqalarga o‘z dorisini berish yoki tavsiya qilish tibbiy savodsizlikdan boshqa narsa emas. Dorixona sotuvchisi ham birovga o‘z bilganicha dori berishi mumkin emas. To‘g‘ri, retseptsiz sotiladigan dorilar ham bor. Ammo har ishnig o‘z ustasi bo‘lganidek, sog‘liq uchun muhim bo‘lgan dori-darmonni ham faqat shifokor tavsiyasi bilan olgan ma’qul.

Yana bir gap, uy sharoitida yoki boshqa hollarda o‘zboshimchalik bilan odamlarga ukol va osma dori qo‘yish taqiqlanadi. Bu ham inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi.

Shuning uchun ham, agar shifokor bo‘lmasangiz, hech kimga ko‘r-ko‘rona dori bermang. Yaqinlaringizni vaqtincha og‘riqni qoldiraman, deb bir umrlik dardga duchor qilib qo‘yishdan saqlaning.

Muhiddin TINIBEKOV,
Fuqaro muhofazasi instituti
o‘qituvchisi



“SUNBULIN LAYLO OCHIPTUR...”

Boshlanishi 1-sahifada.

Navoiy bu jarayonni oxiriga yetkazdi: fors-tojik she'riyati darajasidan aslo kam bo'lmagan, hatto, ba'zi jihatlari bilan undan ham ustun bir pog'onaga ko'tarilgan ijod namunalari yaratdi. Buni mavlono Abdurahmon Jomiyning: “Navoiy forsiy sohibi qalamlarga rahm qilib, xayriyat, turkiy tilda asarlar yozdi”, qabilidagi qaydi ham to'la tasdiqlaydi.

Fors-tojik she'riyatidan kam bo'lmagan she'riyat yaratishning Navoiy tanlagan bir muhim yo'li shu ediki, u forscha-tojikcha va arabcha so'z va ifodalarni o'zbek tilidagi asarlarida maksimal darajada qo'lladi. “Xazoyin ul-maoniyy”da birinchi devon bo'lmish “G'aroyib us-sig'ar”ning 228-g'azali ham aynan shu g'azal baytlari she'rlardan biri. Chunki undagi mavjud 10 qofiyaning hammasi forsiy-arabiy so'zlardan iborat. Ehtimol, shoir zamonasidagi forsiy she'riyatdan to'la boxabar turkiy kitobxon uchun bu g'azalni tushunish u qadar katta mushkulot tug'dirmagandir. Lekin hozirgi o'quvchi uchun bu g'azal baytlari mazmunini chaqish, shu tariqa ulardagi badiiy go'zallikdan to'la bahramand bo'lish unchalik oson ish emas.

Keling, avval 9 baytli bu g'azalda nechta so'z ishlatilgani-yu uning qanchasi turkiy ekanini aniqlashtirib olaylik. Jami 119 ta so'z qo'llangan. Ayrimlari takror-takror ishlatilgan ham. Mayli, keling, hozir shu so'zlarni uchga bo'laylik:

– Turkiy (o'zbekcha) so'zlar: ochiptur, yel, emas, qonatinish, emas, ko'zgusida, bir, sori, men, bir, sori, ko'rguzupturbiz, emas, o'xshatqan, uchun, aro, ko'nglum, qushidur, emas, ustidin, eskach, qildimkim, emas, oltun, ollida, emas, dema, yo'q, bu, emas, ul, emas, uzra, ettim, ko'ngul, aytay, kebi, emas, bo'lmangiz, aro, siz, kebi, bilturg'i, biri, emas, manga, tutti, erur, ul, emas.

Demak, 119 ta so'zdan 50 tasigina – turkiy. Bu, hatto, ishlatilgan jami so'zlarning yarmini ham tashkil etmaydi. Bulardan “emas” 11, “bir” 3, “sori” 2, “ko'ngul” 2, “men” 2, “kebi” 2, “aro” 2 martadan qo'llangan. Bundan 17 so'z qisqaradi. Demak, bu she'rda jami 33 tagina turkiy kalima keltirilgan bo'lib chiqadi.

– Forscha-tojikcha so'zlar: sunbul, dog'ini, lolayi, hamro, nastaran, yor, chehra, guli, gulni, yorimg'a, go'yo, bog', bulbuli, shaydo, sunbul, nigorim, turrasin, yul, oshuftadur, nargis, jomining, kofuriy, pardayi, jonimdurur, afg'onimda, bulbul, nolasidek, ham, anduhzo, gar, gulni, sarv, bo'stonida, rost, sarvi, gulro'yum, zebo, ey, sho'xlarkim, bog', gullardin, paydo, gulrux, bulbulg'a, gul, mast, ham, Navoiydek, rasvo.

Demak, 119 so'zdan 49 tasi – forsiy. Miqdor jihatidan bu – turkiy so'zlardan, bor-yo'g'i, 1 tagina kam, xolos. Demak, 119 ta kalimadan 99 tasi turkiy va forsiy so'zlar. Arabcha so'zlar 20 tagina qolyapti. Marhamat, sanab ko'ramiz.

– Arabcha so'zlar: Laylo, abiroso, Majnun, aksin, ra'no, muztarib, nasim, dimog', savdo, harir, marhun, qadahpolo, nishot, nishotafzo, xayol, mag'ruri, husn, soqiy-u, qadah, vale.

O'zbek tilida o'z guruhidagi qardosh 40 ta lison orasida eng forsiylashgan turkiy zabon hisoblanadi. Tilimizda arabiy va forsiy so'z va iboralarning ko'p qo'llanishi jihatidan Navoiy ijodiga teng keladigani yo'q. Bu an'ana undan keyingi davrlar adabiyoti, ayniqsa, she'riyatida ham izchil davom etdi. Xususan, Muhammad Rizo Ogahiy ijodida yana qaytdan bo'y ko'rsatdi.

Navoiy qalam tebratgan til turkiy guruh orasidagi “chig'atoy tili” deb yuritilar edi. Bu tilning boshqa turkiy tillardan keskin ajratib turadigan uch muhim xususiyati bor edi: 1) qarluq-chigil guruhiga mansub edi, ya'ni uyg'ur tilidagi kabi, so'zlar, masalan, “keldim”, “ketdim” (“galdim”, “getdim” emas), “etti” (“edi”) emas), “to'rt” (“do'rd” emas), “yig'ladim”, “yo'q”, “etti”, “ip”, “ilon” (“jiladim”, “jo'q”, “jetov”, “jip”, “jilon” emas) tarzida ishlatiladi; 2) bu tilda forsiy va arabiy so'z va ifodalar boshqa barcha turkiy tillardagidan ko'ra ko'p ishlatilgan; 3) forsiy-arabiy talaffuz ta'sirida rivojlanish jarayonida bu tilda singarmonizm keskin kamayib borgan, hatto, hozirgi o'zbek adabiy tilida yo'q darajaga tushib qolgan, ayrim so'zlardagina saqlanib qolgan, xolos. Ammo hozirgi o'zbek tilining o'g'uz va qipchoq lahjalarida u to'la amal qilib kelmoqda.

“Singarmonizm” yunoncha “syn” (“birga”) hamda “harmoniya” (“uyg'unlik”, “ohangdoshlik”) so'zlarining qo'shilmasidan hosil bo'lgan. U asosan turkiy, qisman ayrim boshqa tillarda uchraydigan unillar uyg'unligini anglatadi. Bunda qo'shimchalardagi unillar o'zakdagi unilarga moslashadi. Masalan, “kel” fe'lga “-gan” sifatdash yasovchi qo'shimcha qo'shiladi.

Chunki “e” unlisi “-gan”ni talab qiladi. Biroq “qol” o'zagiga sifatdash qo'shimchasini qo'shadigan bo'lsak, u endi “-g'on” yoki “-g'an” shaklini talab qiladi: “qolg'on” yoki “qolg'an” bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm yo'qolganining isboti shuki, biz bugun adabiy tilda “qolgan” deb yozamiz va shunday talaffuz ham qilamiz.

1643–1663-yillarda Xiva xoni bo'lgan Abulg'oz Bahodirxon o'zining “Shajarayi turk” asarini yozishda tilni soddalashtirish, aynan forsiy-arabiy so'z va ifodalarni kamaytirib, besh yashar bola ham tushunadigan qilib yozishni maqsad qilganini alohida qayd etadi: “Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsin, teb, turk tili birlan aytim. Bir kalima chig'atoy turkiydin va forsiydin va arabiydin qo'shmayman, besh yashar o'g'lon tushunur”.

Bu qaydda, birinchidan, chig'atoy turkiy-sida eski, tushunish murakkab so'z va ifodalar ko'pligi, ikkinchidan, unda forsiy va arabiy kalimat haddan ziyod ishlatilgani nazarda tutilgan. Ammo, ochig'ini aytganda, Abulg'oz Bahodirxon har qancha eski hamda

Ammo bu gulning oq, pushti, qirmizi, ko'kimtir, sarg'ish, och binafsha va boshqa ranglarda ochiladigan turlari ham bo'ladi.

Arabcha “abir” xushbo'y moddalar qorishmasini anglatadi. Ya'ni bu “yoqimli hid” degani. Unga forsiy “-oso” qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan “abiroso” esa “yoqimli hid tarqatuvchi” ma'nosida keladi.

Baytda, bir qarashda, bugungi o'zbek o'quvchisiga osongina anglashilganday tuyuladigan, ammo, aslida, tushunarsiz bir so'z bor. Bu – “hamro”. Buning tushunarliq tuyulgani shundaki, o'zbek ismlari orasida “Hamro” uchraydi. U forscha-tojikcha “ham+roh”ning qo'shilmasi sifatida yuzaga kelgan va talaffuzda “roh” so'zining oxirgi tovushi qisqarib, “hamro” bo'lib qolgan. O'zbek tilida uning “yo'ldosh” (“yo'l-dosh”) degan ma'nodoshi ham bor. Lekin bu mulohazalar bilan baytdagi “lolayi hamro” so'z birikmasidan ma'no chiqarmoqchi bo'lsak, aniqki, kalavanning uchini butunlay yo'qotib qo'yamiz. Chunki tilimizda “yo'ldosh lola” degan tushuncha mavjud emas-da. Xo'sh, gap nimada? Gap shundaki, arab

Gulni o'xshatqan uchun yorimg'a go'yo bog' aro,
Muztarib ko'nglum qushidur,

bulbuli shaydo emas, – degan 3-baytda muallif yana bir ijodiy “o'yin” qiladi. O'zi-ku, 2-baytda: “Nastaranda aks etgan ikki chehrani “atirgul” deb o'ylamanglar”, degan edi. Endi esa gulni yoriga o'xshatganini tilga oladi. Bu baytda bugungi o'quvchi tushunishga qiynaladigan birgina “muztarib” so'zi bor. U esa “iztirob chekuvchi”, “betoqat”, “bezovta”, “oshufta” ma'nolarini anglatadi. Shuning uchun qo'shmisrani mana bunday tarzda nasriy bayon etish mumkin:

“Gulni bog'dagi yorimg'a o'xshatganim uchun iztirob chekib, bezovta bo'layotgan (narsa) – ko'nglim qushi, shaydo bo'lgan bulbul emas”.

4-bayt mana bunday jaranglaydi:
Sunbul ustidin nasim eskach,

nigorim turrasin
Yod qildimkim, dimog' oshuftadur,
savdo emas.

Bundagi “nasim” so'zi “shamol”ni, “turra” kalimasi “kokil”, “soch o'rirlari”,



forsiy-arabiy so'z va ifodalarni qo'llashdan chekingani bilan o'zi, baribir, o'sha chig'atoy tili an'anasi asosida asar bitgan. Chunki bu til Navoiyga qadar ham adabiy til sifatida shakllanib kelgan, Navoiydan keyin esa Movarounnahrda asosiy adabiy til bo'lib qolgan edi. Chig'atoycha uyg'urlar, shuningdek, Movarounnahr va Xurosondagi o'zbeklarning qarluq-chigil lahjasida so'zlashuvchi vakillari shevalari asosida shakllangan adabiy til edi. Buni Zahiriddin Muhammad Boburning yaqinda ilmga ma'lum bo'lgan “Taqté” asaridagi ikki izohdan ham bilib olamiz.

Birinchi izoh shuki, asarning 2-sahifasida: “Buxoro lisoni ila aruzi chig'atoy” degan sarlavhaga duch kelamiz. Bu – “Buxoro o'zbeklarining lahjasi asosidagi chig'atoy kerakki”, “Buxoro” deganda muallif hozirgi Buxoro viloyatinigina ko'zda tutmagan, albatta. Buxoro tipidagi shevalar hozirgi Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Tojikistonning ayrim tumanlari va shimoliy Afg'onistondagi keng hududlarda uchraydi.

Ikkinchi izoh shundan iboratki, “Taqté”ning 3-sahifasida: “Buxoro va Xo'qand va Samarqand va Xo'jand va atrofida maxsus chig'atoy lisoni uchrida tartibi aruzdur”, degan qayd ham uchraydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, “chig'atoy tili” deganda, Bobur shu shaharlar va ular atroflarida tarqalgan qarluq-chigil lahjasi vakillari forsinini ko'zda tutgan. Bu lahjada, tabiiyki, zafoniy va arabzi kalimot va iborot bisyor edi. Buni shu hududlardagi o'zbek shevalarida hozir ham kuzatish mumkin.

Endi, keling, g'azalga qaytib, uning mazmunini baytma-bayt sharhlaylik.

Sunbulin Laylo ochiptur,

yel abiroso emas,

Dog'ini Majnun qonatinish,

lolayi hamro emas, –

matla'si mazmuniga yetish uchun undagi bugungi o'quvchiga murakkablik qiladigan so'zlarni aniqlashtirib olishimizga to'g'ri keladi.

“Sunbul” degan gul juda xushbo'y va guli halqa-halqa, ya'ni jingalak bo'lgani uchun Sharq shoirlari ijodida yorning sochini unga o'xshatish an'anaga aylangan. Demak, baytdagi “sunbul” istiorasi “soch” ma'nosini anglatib kelgan. Bu gulning bir turi, to'q nofarmon, ya'ni binafsha rangda bo'ladi va u qop-qora sochga mengzaladi.

tilida “ahmar” degan so'z bor. U bizdagi “qizil” ma'nosini anglatadi. Arab tilida rus tilidagi kabi jins, ya'ni rod bor. “Ahmar” – muzakkariy jinsdagi shakl. Uning muannasiy jinsi “hamro” bo'ladi.

G'azalni arab yozuvi asosidagi eski o'zbek alifbosida o'qigan mutaxassis bunday tarzda adashmaydi. Chunki arabcha “hamro” so'zi “heyi hutti” harfi bilan bitiladi. Buning esa yozilishida forscha-tojikcha “hamroh” so'zidan ikki harf bilan farq qiladi. Bu kalima vazn taqozosi bilan “hamrah” shaklida yozilishi ham mumkin. Ayonlashdiki, “lolayi hamro” aynan “qizil lola” degani ekan.

Qarang, bir bayt mazmunini tushunib olish uchun shuncha lug'at ko'rishga to'g'ri keldi. Ana endi bu qo'shmisrani nasriy bayon etsa, bo'ladi:

“Layli sochini ochibdi, yel xushbo'y hid taratuvchi emas (ya'ni, bu xushbo'y hid Laylining sochidan taralyapti), (uning yuzidagi) dog' qizil lola emas, uni Majnun qonatan”.

“Dog” so'zining “g'am”, “anduh”, “hasrat”, “qalb azobi” kabi ko'chma ma'nolari ham yo'q emas. Shoir, yuzaki qaraganda, yuzdagi xol yoki norni aytayotgandek tuyulgani bilan zimdan ko'ngil dog'ini ham nazarda tutgani sir emas.

Shoirning bor-yo'g'i 11 tagina so'z orqali bir baytda shunday ajoyib manzarani o'quvchi ko'z oldida chizib berish mahoratiga qarang.

Nastaran ko'zgusida bir sori –

men, bir sori – yor

Chehra aksin ko'rguzupturbiz,

guli ra'no emas, –

tarzida jaranglaydigan 2-baytning mazmunini anglash unchalik mushkullik tug'dirmaydi. Chunki undagi “nastaran” – aynan rus tilida “siren” deb yuritiladigan gulning nomi. “Guli ra'no” degani esa “atirgul”ni anglatadi. Demak, baytda quyidagi mazmun bayon etilgan:

“Nastaran shunday chaman bo'lib ochilganki, u go'yo ko'zguga aylangan, undagi tasvirni ikki atirgul deb o'ylamanglar, chunki bir tarafda mening, bir tarafda yorning chehrasi aks etib turibdi”.

1-baytda Layli bilan Majnun haqida so'z borgan edi. Lirik shu parallellik qat'iyati asosida 2-baytda birdan “sahna”ga o'zi bilan yorini olib chiqadi. Buyuk rassom yanglig' o'quvchi ko'z oldida boshqa manzaraning “rasm”ini chizadi.

“zulf”ni, “savdo” esa “aqlidan ozish darajasida oshiqlik”ni bildirib kelganini inobatga olsak, undan shunday mazmun anglashiladi:

“Sunbul ustidan shamol esgach, nigorim (yorim) sochlarini esladim, (shundan) dimog' (ko'ngil) oshufta (oshiq), (lekin) aqlidan ozish darajasida emas”.

Nargis oltun jomining ollida

kofuriy harir

Pardayi jonimdurur marhun,

qadahpolo emas, –

degan 5-baytda yana bugun uchun tushunarsiz so'zlar ko'p. G'azalning shu yerigacha “sunbul”, “lola”, “nastaran”, “ra'no” kabi gullar tilga olingan. Endi bu safga “nargis” ham qo'shiladi. Bu gulning ko'p turlari oppoq rangda ochiladi.

Ammo atrofida oq gul-u, o'rtada sap-sariq qadahga o'xshagan kosachasi bor turlari ham uchraydi. Shoir bu baytini uning aynan ana shu turini ko'z oldiga keltirib yozgan.

“Jom” so'zi – “qadah”ning ma'nodoshi. “Kofur” oppoq rangdagi xushbo'y kristal modda hisoblanadi. “Kofuriy” sifati – “kofur rangida”, ya'ni “oppoq” degani. “Harir” kalimasi ipak matoni, ya'ni yuqqa va nozik gazlamani bildiradi. Bunda nargis gulining kosachasi tildagi oq gulbarglar nazarda tutilyapti. Marhud esa “garovga ko'yilgan” yoki “garovga berilgan” ma'nosida kelgan. “Qadahpolo” degani “maysuzgich”ni anglatadi. May tozalanishi uchun u doka yoki surpdan o'tkazilgan-da.

Ana endi bayt mazmunini tugal ifodalash imkonini paydo bo'ladi:

“Nargis gulining olindak sap-sariq qadahi oldidagi yuqqa oppoq gulbarglar jonimning garovga berilgan pardasi hisoblanadi, u mayni suzib oladigan narsa emas”.

Dema: “Afg'onimda bulbul

nolasidek yo'q nishot”,

Bu ham anduhzo emas,

gar ul nishotafzo emas, –

deya jaranglaydigan 6-baytdagi “afg'on” so'zi “nola”, “fig'on”ni, “nishot” kalimasi “shodlik”, “xurramlik”, “xursandchilik”ni, “anduhzo” ifodasi “g'am-anduh keltiruvchi”ni, “nishotafzo” esa “xursandlik paydo qilish”ni bildiradi. Demak, baytda quyidagicha mazmun anglashiladi:

“Chekkan nola-fig'onimda bulbul nolasidek shod-xurramlik yo'q”, dema, garchi u xursandlik paydo qiluvchi bo'lmasa-da, bu ham g'am-anduh keltiruvchi emas”.



Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori,
professor

Endi navbat 7-baytda keldi:

Gulni sarv uzra xayol ettim

ko'ngul bo'stonida,

Rost aytay, sarvi gulro'yum

kebi zebo emas.

Shoir gullar galareyasidan daraxtga o'tdi, ya'ni “sarv” so'zini qo'lladi. Ochig'i, “sarv” she'rlar orqali hammamizga juda tanishdek. Holbuki, unday emas. Sarv – ninabargli, ya'ni archalar oilasiga kiradigan daraxt. O'ziga xosligi shundaki, u juda tikka va ingichka bo'lib o'sadi. Yog'ochi juda qattiq bo'ladi. Shayx Xovand Tohur hazratlari (XIII asr oxirlari – 1359) Toshkent shahrida o'zlari ekan bir sarv daraxti yoniga dafn etilgan. Yillar o'tib, daraxt qurigan. Ammo Shayxga maqbara qurayotganda sarvning tanasini aynan qoldirishgan. Hozirgacha ham tik holda saqlanib turibdi.

“Gulro'y” so'zi – aynan “gul yuzli” degani.

Shu tariqa baytdan mana bunday mazmun chiqarish – mumkin:

“Ko'ngil bo'stonida gulni sarv uzra deb xayol qildim, rostini aytay, (u) gul yuzli sarvim (tik qomatli yorim) kabi zebo (chiroyli, go'zal) emas”.

8-bayt, bir qarashda, oldingi baytlardagi bayon va tasvirga bevosita bog'lanmaydi:

Bo'lmangiz mag'ruri husn,

ey sho'xlarkim, bog' aro

Siz kebi bilturg'i gullardin

biri paydo emas.

Musulmon Sharqi mumtoz she'riyatida g'azalning oxirgi qo'shmisrasi, ya'ni maqta'dan oldingi bayt yoki baytlarda shoir erkinroq bir masalani o'rta qo'yish, masalan, nasihat qilish huquqiga ega. Shuning uchun ilmda “begona bayt” deyiladi. Unda shoir oldingi 7 baytdagi izchil tasvirdan chekinadi va kutilmaganda, sho'xlarga, ya'ni o'z husni bilan g'ururlanib yurgan tannozlarga nasihat qilishga o'tadi, ularga dunyoning o'tkinchiligi ta'kidlagan bo'ladi:

“Ey sho'xlar, bog' aro husnlaringizga mag'rur bo'lmanglar, (chunki) siz kabi bulturg'i gullardan biortasi paydo emas (ya'ni qolmagan)”.

9-bayt – maqta'. Unda bugungi o'quvchi uchun tushunarsiz so'z yo'q darajada:

Manga gulrux soqiy-u,

bulbulg'a gul tutti qadah,

Mast erur ul ham Navoiydek,

vale rasvo emas.

Faqat “gulrux” qo'shma so'zidagi “rux” o'zbekchadagi “yuz”ni bildirishini qayd etish kerak, xolos. Shoir dastlabki 7 baytda qo'l kelgan timsollarga yana qaytadi. Chunki ularda lirik qahramonning gulrux yori, bulbul, nargis gulining qadahi tilga olingan edi.

Shu tariqa baytdan mana bunday mazmun anglashiladi:

“Menga gul yuzli (yor) soqiylik qildi-yu, bulbulga gul qadah tutdi, u (bulbul) ham Navoiydek mast, lekin rasvo bo'lgan emas”.

Ko'rinib turibdiki, bu shoirning ancha murakkab g'azallari sirasiga kiradi. Baytlarda zichlik bor. Ifodalarda forsiy-arabiy so'z va qo'shimchalar ustuvorlik qilgan. Ochig'ini aytganda, bu asarni forsiyga o'g'irish u qadar mushkulot tug'dirmasa ham kerak.

Birinchidan, zinhor-bazinhor, shoir turk-kona uslubda she'r yozishga qiynalgan, shuning uchun forsiy-arabiy so'zlardan unumli foydalangan, deb o'ylamaslik kerak. Yo'q, u bilib turib shu yo'lni tutgan. Bu bilan turkiy tilda ham shunaqa yuksak darajadagi forsiy-arabiy ifoda va tasvirlarni yaratish mumkinligini isbotlash uning asl maqsadi zamirida yotgan.

Ikkinchidan, aynan shu yo'l bilan ham u ona tili imkoniyatlarini kengaytirishga munosib hissa qo'shgan. Chunki har qanday til, jumladan, boshqa tillardan olingan so'zlar hisobiga boyib boradi.

Uchinchidan, Navoiyning sof turkiy so'zlarni ko'proq ishlatishni maxsus maqsad qilib yozgan g'azallari ham kam emas. Bu uning turkiy til imkoniyatlarini namoyon etishdagi ikkinchi bir yo'li edi. Biroq ayni masalani alohida ko'rib chiqish lozim.



Boshlanishi 1-sahifada.

Otam ukasi Atoulla Xo'jayev, amakisi Fayzulla Xo'jayev, ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy haqida ko'p gapirar edi. Oralarida uch yosh farq bo'lsa ham, Behbudiyini o'zining ustози deb bilardi. Koshki, bolaligimda hozirgi aqlim bo'lsaydi, otamdan ko'p ma'lumotlarni so'rab olgan bo'lardim. Afsuski, bolaligimda otamning Buxoro davlatining hukumat rahbari, moliya vaziri bo'lganini, Dushanbe voqealarini bilmaganman. Otam to'qson yoshida men yigirmaga kirganman. U kishi namozxon, ammo mutaassib mullalarning din bahonasida ilm-fan ravnaqi, yevropacha ta'lim taraqqiyotiga qarshi o'rta asrcha talablarini rad etuvchi ochiq fikrli odam edi.


Onam bolaligimda: “Biz “oltin beshik” sulolasidanmiz, men ham Afg'onistonda Pag'monda oltin beshikda katta bo'lganman”, derdilar. Menga esa onamning malikaligi ertakdek tuyulardi. Keyin bilsam, bu gapida jon bor ekan. Otam ba'zan: “Qara, o'g'lim turk qizlari juda go'zal, ammo sen albatta turkistonlik bir qizga uylan, boisi, turkistonlik bo'lgan onaning farzandlarida Turkistonga vatan muhabbati bo'ladi”, deb maslahat berardi.

Qarangki, yigirma to'rt yoshimda Amerika-da asli toshkentlik o'zbek qizi bilan tanishib, oila qurdim. Balki, bu ham otamning ta'siridir. Otam vafotidan ozgina avval yoniga chaqirib: “O'g'lim, sezyapman, Turkiston albatta mustaqil bo'ladi. Men uni ko'rmayman, sen albatta ko'rasan. Vatanga borasan, seni quchoq ochib qarshi oladilar”, degan edi.

Men litseyda o'qib yurganimda yo fan, yo adabiyotni tanlashim kerak edi. Men adabiyotni tanladim. Bir sinfdoshim bilan litseyimizda shu vaqtgacha bo'lmagan devoriy gazeta chiqardik. Devorga ilingan bir betlik katta harflar bilan yozilgan gazetamizni barcha o'quvchilar qiziqib o'qir edi. Yetti oydan so'ng bir do'stimizning she'ri sabab yopilgandi. O'sha yillarda she'r va hikoyalari bolalarning gazeta va jurnallarida bosilardi. Shuning uchun Istanbul universitetining turkologiya yo'nalishiga o'qishga topshirdim.

Aslida, o'zbekning yaxshi shoiri yoki zo'r yozuvchisi bo'lmoqchi edim. Ammo, til tanqisligi bois murodimga yetolmadim. Universitetda mumtoz ko'kturk adabiyoti, usmonli, chig'atoy adabiyoti, shundan so'ng zamonaviy turk adabiyoti o'tilardi. U vaqtlar Turkiyada zamonaviy o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon adabiyoti haqida ma'lumotlar yo'q darajada edi. Faqatgina ozarbayjon shoiri Shahriyorning “Haydar bobo” she'ri o'tilardi. Men litsey davrimdayoq do'stlarimizdan “Sharq yulduzi” jurnali, ba'zi she'riy va badiiy kitoblarni olib, kirill alifbosini ham o'rgangan edim.

Uchinchi bosqichda o'qiyotganimda, 1968-



“Matbuot – tilning qiblasi. Matbuotda nimaiki chiqsa, muharrirlar qo'lidan o'tadi. Gazeta muharririmi, jurnal, kitob muharririmi, studiya va bo'lim muharririmi – tilimizning bog'bonlari mana shular. Bepoyon xalq tili bog'ida gul o'stirsam ham shular o'stiradi, alaf g'ovlatam ham shular g'ovlatadi.

Asqad MUXTOR

MEN VATANDA EMASMAN, VATAN MENING ICHIMDA

yil iyulda otam vafot etdi. Oradan uch oy o'tib, sentyabrda otam nomiga Amerikadan professor Eduard Olvorddan xat keldi. Unda turk tilida “Buxoroda millatlar masalasi”, “Behbudiy nega Qarshiga borgan?” kabi oltita savol yo'llangan edi. Tabiiy, bu savollarga menda to'liq javob yo'q edi. Otamning vafot etganini aytib, ba'zi savollariga bilganimcha javob yozdim. Shundan so'ng professor Eduard Olvord bilan do'st bo'lib ketdik. U menga o'zining sovet tarixiga oid kitoblari va maqolalarini yubordi. 1968-yilda yozilgan bir maqolasida Rauf Parfining “Tush” she'rini tahlil etib, Markaziy Osiyo adabiyotiga lirikaning qaytishi, deb baho bergandi.



Men 1990-yil Toshkentga kelganimda, bu inglizcha maqolani Rauf Parfiga bergan edim.

Eduard Olvord taklifi bilan 1972-yil 4-yanvarda Amerikaga magistraturaga o'qishga yo'l oldim. 5-yanvar kuni xonasida iliq qarshi olib, ikki oydan so'ng aprel oyida Kolumbiya universitetida ilmiy konferensiya bo'ladi, dedi. Menga “Buxoro Respublikasida milliy masala” mavzusida maqola tayyorlab qatnashishni topshirdi. Bu menga nisbatan ulkan ishonch edi. Uning yoniga tez-tez borib, har gal uning maslahati bilan maqolamni to'g'rilab turdim. Konferensiya men uchun ilk akademik chiqish edi.

1973-yili konferensiya to'plami chiqqach, sovetlar mamlakatidagi ilmiy nashrlarda olimlar tomonidan ko'plab raddiyalar yozildi.

Mening maqolamga Marat Nurmuhammedov tomonidan raddiya yozilgandi. Shundan so'ng “1960–1970-yillarda qozoq she'riyatida qozoq milliy ong sezimining o'rni” mavzusida magistrlik ishi yozdim. Ustozim Olvord doktorlik tadqiqotim uchun Stalin vafotidan so'ng, 1950–1980-yillarda o'zbek va qozoq roman, qissa va hikoyalarda sovet odami obrazi kommunistcha tayanch g'oyalari asosida berilyaptimi yoki o'zlarining milliy tafakkurlari asosida yaratilmoqdami, degan savol qo'yd. Men 400 dan ortiq o'zbek va qozoq romanlarini o'rganib chiqib, ularda aynan milliy ong sezimi ta'sirining yuqori ekanligini aniqladim.



Albatta, Turkiyada bu asarlarni topishning imkonini yo'q edi. Kolumbiya universiteti kutubxonasining ikki qavati sovet nashrlariga bag'ishlangandi. Unda barcha kitoblar, hatto eng chekka hududlarda bosiladigan kunlik gazetalargacha olinardi. Tadqiqot uchun barcha materiallarni jamlab, dissertatsiyani yozishga kirishgan vaqtimda, “Ozodlik” radiosidan xat keldi. Aslida, ungacha ham Olvordning tavsiyasi bilan har oyda to'rtta maqola yozib turardim.

1977-yili Germaniyaga borib, “Ozodlik” radiosini o'zbek bo'limida rasman ish boshladim. Afsuski, meni chaqirgan Vali Zunnun yetib borganimda vafot etgan ekan. 1984-yilgacha Husayn Ikrom, Ziyovuddin Bobo-qurbon, Chig'atoy Ko'char kabilar bilan ishladik. 1984-yildan Turkiyaning Marmara universitetida dotsent unvonida dars berdim. 1988-yilda yana Germaniyaga kelib, “Ozodlik” radiosiga ishga qaytdim. Bu gal radioning tadqiqot bo'limida ham ishladim, bu tadqiqotlar dunyodagi barcha universitetlar kutubxonalariga yuborilar edi. Bir maqolamda 1952–1984-yillardagi sovet respublikalari KGB boshliqlarini o'rganib, Ukraina, Armaniston, Gurjistonda hamisha o'z millatlari, Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonda esa biror marta mahalliy millatlardan rahbar tayinlanmaganini aniqladim. Xullas, Turkiyada turkologiyadan ilm olgan bo'lsam, Amerikada siyosat bilimlarini o'rgandim.

Sovet davlatida qayta qurish siyosati ortidan 1990-yil oktyabrda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Odil Yoqubovning taklifi bilan birinchi marotaba Toshkentga keldim. Katta majlisda hind elchisi, afg'on elchisi, Erkin Vohidov, Pirmuqul Qodirov kabi ko'plab yozuvchi va shoirlar qatnashdi. Menga so'z berishganida, “Men Vatanda emasman, Vatan mening ichimda”, deb gapimni boshladim. Hamma qarsaklar bilan qarshi oldi.


Angladimki, ishtirokchilar uchun allaqachon Vatan SSSR emas, O'zbekiston edi. Shundan ilhomlanib: “Bugun Vatan tom ma'noda mustaqil emas. Ammo yaqin orada har jihatdan mustaqil bo'ladi”, dedim, yana qarsak. Ziyolilar orasidagi yorqin istiqlol orzusi va ishonchni ko'rmasimda, balki men bu so'zlarni aytolmas edim. So'ng bizni Andijonga, Boburning ilk haykali ochilish marosimiga olib bordilar. Men istiqlolning ramzi sifatida Boburning oyoqlarini o'pdim. Undan Samarqand va Buxoroga bordim. Buxoroda Fayzulla Xo'jayevning uyini qandaydir idoradan olib, endi ta'mir ishlarini boshlashgan edi.

Toshkentga borganimda, yana bir katta majlis bo'ldi. Menga ko'p savollar berishdi. Bir kishi: “Siz amakingiz Fayzulla Xo'janing uyini ko'ribsiz, otangizning ham uyiga bordingizmi?” deb so'radi. Men: “Otamning uyi borligini bilmayman”, dedim. Keyinchalik bilsam, u savolni amakim Atoulla Xo'jayevning o'g'li, tarixchi professor Sulaymon Inoyatov bergan ekan... Afsuski, ushbu safarimdan so'ng ko'p yil Vatanga kela olmadim. 2011-yilda Amerikaning Michigan universitetida ishlab yurgan kezarim O'zbekistondagi norasmiy uyushmalarga oid bir tadbir tufayli kelgandim. Uchrashgan tashkilotlarimizning aksari soxta va faoliyati ham kulgili edi.

2018-yili Vatanga uchinchi bor kelganimda, otamning uyini ko'rdim. Bu gal O'zbekistonda katta o'zgarishlar bor edi. Hech bir qiyinchiliksiz qayta-qayta kelib, qardoshlarim bilan uchrashdim. Jadid harakatini ilmiy o'rganishda ham katta o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Birin-ketin jadid taraqqiyparvarlari ilmiy-adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan yirik xalqaro konferensiyalar tashkil etildi.

Albatta, otamning orzusi ushaleyotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. U aytganidek, Vatan meni quchoq ochib qarshi oldi. Nafaqat qarindoshlarim, shogirdlarim, do'stlarim, xalqimiz ham. O'zbekistondagina emas, balki, otamning Mustafu Cho'qay bilan do'stligi bois, Qozog'istonda ham meni issiq qarshi oladilar. Qirg'izistonda ikki marta bo'ldim. Juda ham go'zal. Men otam tufayli qadr topdim.

Mana, yosh avlod ulg'ayib kelyapti. Vatan taraqqiyoti yo'lida jiddiy qarorlar olinmoqda. Jamiyat sovet tuzumi asoratlaridan qutulib, haqiqiy mustaqillik va taraqqiyot sari ulkan qadamlar o'tayotganiga ishonaman. Mana, Jadidlar merosi davlat muzeyining ochilishi



haqidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning oliy qarori... Bu ishlarning hammasi Vatanning porloq kelajagi haqida yanada ulkan orzularga yo'l ochmoqda. Albatta, bu muzey ochilsa, jadidshunoslik jabhasida ulkan tadqiqotlar uchun tayanch markazi ham bo'ladi.

Bugun Yangi O'zbekistonning Turkiya davlatlar tashkilotidagi o'rni ham juda muhim. Ishonamanki, yaqin orada turkiy davlatlar birlashib, ulkan bir madaniy makon, barqaror iqtisodiy qudrat hosil etadi.

Mening kindik qonim Turkiyada to'kilgan. Uning sanoqsiz yutuqlarida asli buxorolik otam Usmon Xo'ja, uning safdoshlari, Germaniyada tahsil olib qaytgan professor Ahmadjon O'qoy, Sayidali Anqara, Afzal Vansurel kabi ko'plab o'zbek aslii zotlarning, kaminaning, shogirdlarimning ham xizmati borligidan iftixor qilaman.

Jadidlar o'z davrida taqdim etgan g'oyalar mukammal bir dasturilamaldir. Ular nima qildi? Har bir inson o'z so'zini ochiq aytishi va xalq dardini tinglash uchun erkin matbuot yaratdi. O'tgan asrdagi “Tarjimon”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg'ona”, “Buxoroyi Sharif”, “Turon”, “Oyina” kabi milliy matbuotimiz durdonalari erkin minbar sifatida tariximizdan zalvorli o'rin oldi.

Ular jamiyatning rivoji, zamonaviy ta'lim, ilm-fan ravnaqi yo'lida sanoqsiz maqtablar ochib, yangi usuldagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratdilar. Zamonaviy parlamentar boshqaruv va demokratik saylovlar asosida Turkiston Muxtoriyati, Musavvat Ozarbayjon Jumhuriyati, Alash o'rda, Muvaqqat Boshqird, Qrim davlatlarini tashkil etdilar. Jamiyatni g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan mustahkamlab, millatni turli bid'at va xurofotlardan xoli taraqqiyot yo'lga safarbar etishga tirishdilar. Qolaversa, Buxoro va Xorazm Xalq Sho'ro Jumhuriyatlari ham dastlabki yillarda jadidlar davlatlari edi. Ular tez vaqtida kerakli yetuk kadrlar yetishtirish maqsadida xalq orasidan eng iqtidorli farzandlarni tanlab xorijga talabalar yo'lladi.

Shubhasiz, huquq va qonun hukmron, inson hur, matbuot erkin bo'lgan, ilm-fan rivoj topgan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga muvassir bo'ladilar. Bu – aynan taraqqiyot yo'li, bu – jadidlar yo'lidir.

Bahrom IRZAYEV yozib oldi.

JAHON AYVONIDA

MIGRATSIIYA SIYOSATI QAT'IYLAISHDI



Rossiyada 2026–2030-yillarga mo'ljallangan migratsiya siyosati konsepsiyasi tasdiqlandi. Tegishli farmon prezident Vladimir Putin tomonidan imzolanganach, qonun hujjatlarini rasman e'lon qilish saytiga joylashtirildi.

O'zgarishlar orasida maktabga bormaydigan chet ellik bolalar sonini kamaytirish, shuningdek, migrantlarning ishlamaydigan va o'qimaydigan oila a'zolarining Rossiyada bo'lishini cheklash kabi bandlar bor.

YEVROPAGA KIRISHDA YANGI TIZIM

Yevropa Ittifoqida blokdan tashqaridagi mamlakatning qisqa muddatli tashrif

bilan kelgan fuqarolari uchun kirish va chiqishda yangi elektron ro'yxatga olish tizimi – Entry/Exit System (EES) kuchga kirdi, deb xabar bermoqda “Reuters”.

EES – uchinchi mamlakatlardan kelgan sayohatchilarni chegaradan o'tish joylarida ro'yxatga olish, jumladan, pasportni skanerlash, barmoq izlarini olish va suratga tushishni talab qiladigan avtomatlashtirilgan tizim. U Shengen zonasi mamlakatlarida, shuningdek, Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shveysariyada amal qiladi.



Tizim Yelda muddatidan ortiq qolib ketganlarni aniqlashga, shaxsiy ma'lumotlar fribgarligiga qarshi kurashishga va noqonuniy migratsiyaning oldini olishga yordam beradi.

ZAHARLI SIROPLAR

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Hindistonda shamollash va yo'talga qarshi sifatsiz siroplar partiyalari aniqlangani haqida ogohlantirdi.



Gap Sresan Pharmaceutical, Rednex Pharmaceuticals va Shape Pharma tomonidan ishlab chiqarilgan COLDRI, Respiresh TR va ReLife siroplarining alohida partiyalari haqida ketmoqda. Ularda dietilenglikol aralashmalari aniqlangan. Uning miqdori ruxsat etilgan me'yordan deyarli 500 baravar ko'p bo'lgan.

SUPER YOG'OUCH



AQSHning InventWood kompaniyasi olimlari oddiy yog'ichni qayta ishlab

po'latdan o'n baravar mustahkam va olti baravar yengil yangi super yog'och yaratdi. Kompaniya mahsulotni tijoriy ishlab chiqarishni ham boshlab yubordi.

Yangi texnologiyada yog'och avval kimyoviy eritmada qaynatiladi, so'ng issiq pressda siqladi. Buning natijasida yog'och hujayralari zichlashadi va u oddiy metallardan mustahkam materialga aylanadi. InventWood rahbari Aleks Lauga ko'ra, bu yog'och binolarni ancha yengil qilish imkonini beradi – bu zilzilaga chidamlir qurilmalar, qurilishda esa kamroq xarajat degani.

CHOYCHAQA TAQIQLANDI



Qirg'izistonda 2026-yil 1-yanvardan boshlab restoran, kafe va boshqa ovqatlanish joylarida buyurtma narxidan tashqari alohida xizmat haqi olish taqiqlanadi. Bu haqda mamlakat Vazirlar Mahkamasiga tayanib, “24.KG” xabar berdi.

Qayd etilishicha, alohida xizmat haqi deyilganda taomlarni taqdim etish, stol bezatish va boshqa xodimlar xizmatlari uchun olinadigan to'lovlar nazarda tutilmoqda.

ENG YIRIK OLTIN KONI



Xitoy geologlari Xunan provinsiyasida dunyodagi eng yirik oltin rudasi konini topdi. Bu haqda “Popular Mechanics” xabar berdi.


Dastlabki hisob-kitobga asosan, yer ostida 1100 tonnagacha oltin zaxirasi bo'lishi mumkin, bu taxminan 83 milliard dollarga teng. Xitoy davlat matbuotiga ko'ra, kashfiyot Pintszyan okrugidagi faol Vangu oltin koni ostidan chiqqan. Geologlar taxminan 2000 metr chuqurlikda 40 dan ortiq oltin o'zanlarini aniqladi va 3D modellashtrish zaxiralar yanada chuqurroq, 3 kilometrgacha cho'zilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.



DUNYO ILM-FANI

SARATON CHEKINADI

Alfred Nobel vasiyatiga ko'ra ta'sis etilgan nufuzli mukofot har yili insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan shaxslarga topshiriladi. 2025-yilgi fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti ham aynan shunday buyuk kashfiyotga – immunitet tizimining o'z hujayralariga hujum qilishini to'xtatuvchi mexanizmlar – “periferik immunitet tolerantligi” bo'yicha fundamental tadqiqotlar uchun berildi. Meri Brunkov, Fred Ramsdell (AQSH) va Shimon Sakaguchi (Yaponiya) immunologiya sohasida inqilob yasab, autoimmun kasalliklar, saraton va transplantatsiya kabi sohalarda yangi davolash usullarini yaratishga poydevor qo'yishdi.



TARIX

Immun tizimining eng asosiy vazifasi – organizmni begona, ya'ni patogen mikroorganizmlardan himoya qilishdir. Ammo himoya jarayonida immunitet o'zining sog'lom hujayralarini adashtirib qo'ymasligi muhim. Immun tizimining bu xususiyati “immunologik tolerantlik” deb ataladi.

Tarixda olimlar uzoq vaqt davomida tolerantlikning faqat “markaziy” mexanizmlar orqali shakllanishiga ishonishgan. 1960-yilda Nobel mukofotini olgan olimlar Frenk Makfarleyn Byornet va Piter Medavarning ishlari bu boradagi ilk muhim qadam edi. Ular immun tizimi embriolik davrida o'z hujayralarini eslab qolishini va ularga qarshi kurashmasligini isbotladi. Ammo ba'zi autoimmun kasalliklar (masalan, revmatoid artirit, Kron kasalligi) bu nazariyaning barcha holatlarga taalluqli emasligini ko'rsatdi. Ya'ni, immunitetning nazoratdan chiqishi faqatgina markaziy organlarda emas, balki organizmning periferik qismlarida ham yuz berishi mumkin edi.

BUGUN

Aynan shu bo'shliqni to'ldirishda Brunkov, Ramsdell va Sakaguchi kashfiyotlari muhim rol o'ynadi. Ular immun tizimida nazorat qiluvchi maxsus hujayralar – tartibga soluvchi T-hujayralari (Tregs) mavjudligini aniqladilar. Yordamchi T-hujayralari doimo tanani nazorat qiladi. Agar ular bosqinchi mikrobn topsa, boshqa immunitet hujayralarini ogohlantiradi.

1995-yil Shimon Sakaguchi birinchi bo'lib autoimmun kasalliklardan himoya qiluvchi noma'lum immun hujayralari turini aniqladi. U bu hujayralarning autoimmunitetning oldini olishdagi hal qiluvchi rolini namoyish etdi, ammo ularning paydo bo'lish mexanizmini to'liq tushuntira olmadi.

2001-yil Brunkov va Ramsdell autoimmun kasalliklardan aziyat chekadigan genetikasi o'zgargan sichqonlar ustida ishlaganlarida, ularda FOXP3 nomli genda mutatsiya borligini aniqladilar. Bu gen insonlarda ham IPEX sindromi (og'ir autoimmun kasallik)ga sabab bo'ladi. Ularining kashfiyoti FOXP3 genining tolerantlikdagi muhim rolini ko'rsatib berdi.

Sakaguchi ikki yildan so'ng FOXP3 genining o'zi kashf etgan tartibga soluvchi T-hujayralarining rivojlanishini boshqarishini isbotladi. Shunday qilib, uch

olimning tadqiqotlari birlashib, immunitetning murakkab ichki nazorat tizimi to'liq namoyon bo'ldi.

KELAJAK

Bu kashfiyot nafaqat ilmiy dunyoda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, balki amaliy tibbiyotda ham tub burilish yasadi. Buni uch yo'nalishda ko'rishimiz mumkin:

Autoimmun kasalliklarni davolashda. Endi olimlar immun tizimi haddan tashqari faol bo'lgan autoimmun kasalliklar (masalan, revmatoid artirit, 1-toifa diabet) ni davolash uchun Tregs sonini oshirish ustida ishlamoqda. Buning uchun bemorning tartibga soluvchi T-hujayralarini ajratib olish, laboratoriyada ko'paytirish va qayta kiritish usullari sinovdan o'tkazilmoqda. Tregs rivojlanishiga yordam beruvchi “interleykin-2” kabi moddalar yordamida immun tizimini tinchlantirish borasida izlanish olib borilyapti.

Saraton immunoterapiyasida. Saraton hujayralari ko'pincha Tregslarni jalb qilib, immun tizimining hujumidan o'zini himoya qiladi. Olimlar saratonga qarshi kurashish uchun ushbu Tregslarni yo'q qilish yoki ularning faoliyatini to'xtatish usullarini izlamoqda. Bu orqali immun tizimi saraton hujayralariga hujum qilishi uchun yo'l ochiladi. Tadqiqotlar natijasida saratonni davolash borasida yangi immunoterapiya usullarini yaratish ko'zda tutilmoqda.

Organ transplantatsiyasida. Organ ko'chirib o'tkazilganda, tana yangi a'zoni “begona” deb hisoblab, uni rad etishining oldini olish uchun immun tizimini boshqarish zarur. Tregs terapiyasi immun tizimining donor organga nisbatan tolerantligini oshirishda yordam berishi mumkin.

XULOSA

Brunkov, Ramsdell va Sakaguchining kashfiyoti immunologiya ilmiga yangi nafas olib kirdi va uning markaziy tolerantlikdan tashqari boshqa murakkab nazorat mexanizmlariga ega ekanini isbotladi. Ular immun tizimi o'z-o'zini saqlab qolishining fundamental sirlarini ochish bilan birga, autoimmun kasalliklar, saraton va organ transplantatsiyasi kabi sohalarda yangi, samarali davolash usullarini yaratishga yo'l ochdi. Bu kashfiyot insoniyat uchun katta foyda keltiradigan, Alfred Nobel vasiyatiga to'liq mos keladigan ulkan ilmiy yutuqdir.

Jamoliddin BADALOV

TADBIR

DAVLAT TILI VA HARBIY ATAMALAR

Kuni kecha O'zbekiston Milliy matbuot markazida o'tkazilgan “O'zbek harbiy atamashunosligi: bugungi holati va istiqbollari” mavzusidagi davra suhbatida harbiy soha va davlat tili siyosatining uyg'unligi, xususan, Istiqlol davrida harbiy atamalarni milliyalashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, dolzarb vazifalar xususida fikr almashildi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamkorligida tashkil etildi.

Mudofaa vazirining matbuot va targ'ibot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Olimjon O'sarov o'z so'zida “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmonida mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, harbiy tizimda ham davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga qaratilgan aniq vazifalar belgilab berilganini alohida ta'kidladi.



Davlat tilini rivojlantirish departamenti vakili, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Nodirbek Jo'raqo'ziyev esa bugungi kunda harbiy atamalarni yaratish, ularni ilmiy asosda amaliyotga tatbiq etish jarayonlari haqida ma'lumot berdi. Uning fikricha, zamonaviy harbiy til xalq tilining tabiiy ohangini saqlagan holda, xalqaro tajribaga ham mos bo'lishi lozim.

Shuningdek, filologiya fanlari nomzodi Hamid Yodgorov tadbirida o'zbek harbiy atamashunosligining tarixiy ildizlariga to'xtalar ekan, o'zaklar “Devonu lug'atit turk” va “Qutadg'u bilig” kabi asarlardagi leksik birliklarga borib taqalishi, Sohbiqiron Amir Temur

davrida esa harbiy atamalar yanada takomillashgani yuzasidan tarixiy dalillar keltirdi.

Tadbirida mustaqillik yillarida yaratilgan harbiy lug'atlar, tarjima jarayonlari va ularning ilmiy-uslubiy asoslari haqida so'z yuritilib, bu soha endilikda o'zbek tili rivojining yangi bosqichiga kirib kelgani ta'kidlandi.

Davra suhbatida yakunda ishtirokchilar harbiy atamashunoslikni ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, yangi avlod harbiy lug'atlari va qo'llanmalarini yaratish, davlat tilining tizimda to'laqonli qo'llanilishini kengaytirish bo'yicha fikr almashdilar.

Otabek RAHIM

TILBILIM

Xo'sh, “utyug” turkiy so'z ekan, nega uni tilimizga qaytarmaymiz? Nega adabiy tilda “dazmol” deb ishlatamiz? (“darzmol” – forsha: “darz”(“chok”) + “molidan”) (“surtmoq, ishqalamoq”) so'zlaridan). Vaholanki, eronliklarning o'zlari uni “darzmol” emas, turklar singari, “utuv” (turkcha: “ütü”) deb atashadi. Hozirda deyarli barcha turkiy xalqlar (turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, tatar, boshqird..., qisman tojiklar ham) utuk-ni – “utuk” deydi va “utuklamoq” fe'lini qo'llaydi. Rus tilida ham bu turkiy so'zdan “utyujit” fe'li yasalgan.

Koshg'ariy bobomiz “Devonu lug'atit turk”da bu so'zga juda yaxshi ta'rif bergan: oto'k – andavaga o'xshash temir (asbob) bo'lib, uni qizdiradilar va kiyimning chok hamda baxylarini va tuklarini bostirib silliqlaydilar. Shuningdek, qadimda “utuklamoq” ma'nosida “ötidi” fe'li ham ishlatilgan, xususan “Devon”da unga shunday izoh beriladi: “ötidi – dazmol qildi. Ol tonug' ötdi – u to'n (kiyim) choklarini temir (dazmol) bilan silliqladı (ötir, ötimäk)”.

“Utuk” so'zining kelib chiqishi haqida gap ketganda ba'zan: “utuk” – “ot” (olov) va “yuk” so'zlari qo'shilishidan yasalgan, uning ichiga ot solingani (yuklangani) uchun shunday atalgan, degan yuzaki qarash ham quloqqa chalinadi. Bu fikrning noto'g'riligini “Devonu lug'atit turk”da “ot” va “utuk” so'zlarining yozilishidagi farqda ham ko'rish mumkin. Xususan, “Devon”da “ot” so'zi – (“o:t”) shaklida yozilgan, ya'ni “o” tovushi cho'ziqroq, “öto'k” va “ötidi” so'zlari boshidagi “u” tovushi esa qisqa va yumshoqroq. Ehtimol, bu ikki so'z (“ot” va “öt-”) qachonlardir bir o'zakdan o'sib chiqqan bo'lishi mumkin, chunki qadimgi “öt-” (“yt-”) fe'li – “silliqlamoq”, shuningdek, “olovda kuydirib tekislamoq” ma'nolariga ega bo'lgan. “Devon”da “ötidi” fe'lining faqat “dazmol qildi” deb izohlanishi esa Koshg'ariy zamonida bu fe'l faqat shu ma'noda ishlatilganini ko'rsatadi.

“Devonu lug'atit-turk”ning o'zbekcha nashrida “utuk” so'zi “öto'k” shaklida transkripsiya qilingan. “Этимологический словарь тюркских языков” lug'atida bu so'zning “yt-”, “yty” shakli birlamchi, “öt-”, “öto” (unilar biroz qalinroq) shakli ikkilamchi ekanligi aytiladi.

Shunday qilib, “utuk” so'zi “silliqlamoq” ma'nosidagi “yty” fe'liga (“yuk” so'zini emas, balki) ot yasovchi “-k” qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yasalgan (bitiK, etiK, egik singari). Bu so'zni

HAJV

KO'NGILNI ROM AYLAB

(Kutilmaganda Sattor Surobdan dolzarb mavzu – to'y mashmashasi haqida g'azalnamo SMS keppoldi. Telefon sovumasdan Siz, aziz o'quvchilarga uzataypmiz.

Kamoli ehtirom ila Mulla Xunobingiz)

To'rtelish*da to'rtta ulpat ellik-ellik girom aylab,
To'yxonaga kirib bordik mardonavor xiron aylab.

Dasturxonni rangi o'chdi zumda, laganlar angrayib,
Zakuskani bunda qildik bir chekkadan qiron aylab.

To'y egasi To'yochi alkash o'z to'yida may ulashmas,
Qo'l ko'kisda, yiroqlardan iyak qoqar kirom aylab.

Qorin qappaydi-yu ko'zlar raqqosaga moyil o'ldi,
Beayov jilvalar qildi qurg'ur ko'ngilni rom aylab.

Sayqallamish ani taqdir bastini xumga o'xshatub,
Labin pista, yuzin xurmo, qaboqlarin bodom aylab.

To'k urganday qaltiraydi “Lazgi” chalingan chog'ida,
Yaqosidan “kal”ni tiqdim san'atin ehtirom aylab.

Jo'shib qalbm, otarchini bir chekkaga qilib sanjob,
Uch-to'rt qatla na'ra tortdim mikrapo'nni achom aylab.

Shul nafis holatni kimdir vidyo'ga olmish basma-bas,
Tarmoqlarda kulgi qilmish sharaf-shonim harom aylab.



Shunday moxovnusxalar bor, uyat oni taloq qilgan,
Qani endi kalla qo'ysang aft-angorin shrom** aylab.

Hafta bo'ldi, Sattor Surob, xotin ketgan la'nat aytib,
Xijolatda shiffta boqib yotippan tarki jom aylab.

Melodiy 2025, 17-o'ktabr,
tongotar chog'i miyam qaynab yozdim.

*chorraha (turkiy) **chandiq (slavyoncha)

Jadid

adabiy, dunyo ilmiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 760

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 122

Lotin yozuvida – 11 638

Media kuzatuvchilar – 75 384

Buyurtma: G – 1040.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz